

SHE'RIYAT DURDONALARI

MUHAMMAD YUSUF

Alyorim
qolur ...

*Men ketarman, qolmagay tilla taxtu ko'shklarim,
Menga bu dunyoda chin keltirdi baxt qo'shiqlarim,
O'zbegin uyida yangrar hamma vaqt qo'shiqlarim,
Yod bo'lib aytganlarim, elimda alyorim qolur ...*

• KUYGA SOLINGAN SHE'RLAR •



SHE'RIYAT DURDONALARI

MUHAMMAD YUSUF

Alyorim
qolur...

She'riy to 'plam



ZIYO NASHR

Toshkent
2019

UO'K: 821.512.133-1

KBK 84(5O')6

Yu-91

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
N. Yusupova, M. Yusupova, M. Gulmetova

Yusuf, Muhammad.

Yu-91 **Alyorim qolur.** [Matn]: She'riy to'plam / M. Yusuf. – T.:
«Ziyo nashr» nashriyoti, 2019. – 160 b.

ISBN 978-9943-5705-9-7

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf o'zbek she'riyatida o'z ovoziga ega bo'lgan betakror iste'dod sohibi edi. Uning sodda va xalqona she'rlarini o'qimagan, undan bahra topmagan o'zbek kitobxoni topilmasa kerak. Qo'lingizdagi to'plamdan Muhammad Yusufning qo'shiqqa aylangan eng yaxshi she'rlari o'rinn olgan.

**UO'K: 821.512.133-1
KBK 84(5O')6**

ISBN 978-9943-5705-9-7

© Muhammad Yusuf.

© «Ziyo nashr» nashriyoti, 2019.



Bu yooq Sanoat Fabriq
O'zbekiston

O'ZBEKISTON

Yalpizlari
Ko'kka tutash,
Tunlari zar,
Tongi marjon.
Yulduzlari – qotgan quyosh,
Quyoshlari kuydirmajon.
Oltin tuproq,
Zumrad dalam,
Ipak karvon,
Olmos qal'am.
Kuzda ketgan qushlari ham
Bahor qo'msab qaytgan ayvon –
O'zbekiston, O'zbekiston!

Dunyo ichra
Tengsiz dunyo,
Zarchopon qalb,
Yalangto'shim.
Qo'li ochiq,
Mehri daryo,
Mushti qattiq,
Ko'ngli bo'shim.
O'g'liga ot bo'lib cho'kib,
Qizlariga alla aytgan,
Belbog'iga borin to'kib,
To'yga borib to'ymay qaytgan.



O, bolafe'l,
O, bolajon –
O'zbekiston, O'zbekiston!

O'zini o'y lamay-o'y lab,
Farzandini yurgan sizlab.
O'nga kirgan bolasiga
Sarpo yig'gan
Qalliq izlab.
Bizda shunday,
Boringni qo'y –
To'rtta o'zbek to'plansa – to'y.
Nomus uchun
Kerak bo'lsa,
Joningni yoq,
Ko'zingni o'y.
Soch topganing,
Yoz dasturxon –
O'zbekiston, O'zbekiston!

To'yda unut gina-araz,
To'yxonaga do'nar qishloq.
Shivirlab ham aytilsa bas,
Kelaverar odam tog'-tog'.
Kim otliq,
Kim piyodadir,
Kim qisqa,
Kim ziyodadir.
Eshitgani kelaversin,
To'y qilamiz dunyoda bir.
Bu yoq Vodiy,



Bu yoq Surxon –
O'zbekiston, O'zbekiston!

To'yda yayrar mayda bollar,
To'yda to'lar tandirlar ham.
To'yda –
O'ttiz yashar chollar,
Yigirmada kampirlar ham.
Jondan issiq nonlar tashib,
Titrab qo'llar,
Yonar ko'zlar,
To'y bahona diydorlashib,
Xursand, bo'yga yetgan qizlar.
Yigitchalar kezar – sulton –
O'zbekiston, O'zbekiston!

O, ota yurt,
Ona maskan,
O'xshashingni topay qaydan!
Sen-ku menga zor emassan,
Sensiz qanday yashayin man?
Tilim osti –
Kuling novvot,
Ayirmasin o'chog'ingdan.
Koyiganda koyi,
Faqat,
Qo'yma meni quchog'ingdan.
Sensiz qolmay
Zor-u hayron –
O'zbekiston, O'zbekiston!

Oy to'lsa ham
Shuncha to'lar,
Kun tug'sa ham
Kuncha bo'lar.
Sensiz ikki qadam qo'ysam,
Yurak kuyib kulcha bo'lar.
Qayda sendek vafoli yor,
Qayda sendek tanti diyor!
Senga bir dil berdimmi, bas,
Bu mehrim o'lguncha bo'lar.
O'lganda ham
O'zing makon –
O'zbekiston, O'zbekiston!

Yalpizlari
Ko'kka tutash,
Tuprog'i zar,
Suvi marjon.
Mayizlari – qotgan quyosh,
Quyoshlari – kuydirmajon.
Oltin dala,
Olmos qal'a,
Ipak karvon,
Moviyl bo'ston.
O, otamdan qolgan qo'rg'on –
O'zbekiston, O'zbekiston!

IQROR

O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rakam,
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,
Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog'laring izimdan ergashib yurar.

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman, yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go'zal restoranlarin
Bitta tandiringga alishmasman men.

Na gapga ko'nayin,
Na til bilayin,
Ko'zdan uyqu qochdi, dildan halovat.
Uch kunda sog'insam, nima qilayin –
Chala qolar bo'ldi hamma sayohat.

Bildimki, baridan ulug'im o'zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o'tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganylarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

VATANIM

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim.
O'zim xoqon,
O'zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg'izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri
Ilig'imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan.
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko'ringan, da'vo qilgan,

Ming bir yog‘i ochilmagan
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darbozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan.
Muqannasan, qorachig‘i
Olovlargacha ragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon-
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda.
Bu qanday yuz qarolig‘ deb,
Yotarlar zimistonda,
Tarfab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim...

O‘g‘lim, desang osmonlarga
G‘irot bo‘lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo‘lib tushgayman.
Padarkushdan pana qilib,
Ulug‘beging quchgayman.
G‘ichir-g‘ichir, tishimdagil
So‘lig‘imsan, Vatanim...



O'tgan kuning – o'tgan kundir,
O'z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergen zamin
Qodiriyni sotgan kun.
Qo'lin bog'lab,
Dilin dog'lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam! – deb aytolmagan
Dudug'imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig'lagan bir
Shoiringga qarab qo'y,
Gar Qo'qonga yo'ling tushsa,
Detdomlarni so'rab qo'y.
Hech bo'lmasa Usmon xokin
Keltirmoqqa yarab qo'y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug'imsan, Vatanim.

Sen shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O'g'lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo'ynimdag'i iftixorim,
Bo'ynimdag'i tumorim,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim!

O'ZINGDAN QO'YMASIN, XALQIM

Qushday uchib quchog‘ingdan dunyo kezdim,
 Kezib-kezib topganlarim Sog‘inch bo‘ldi.
 Qancha olis ketsam, shuncha qadring sezdim,
 Qayda yursam yodi-mehring ovunch bo‘ldi.
 Aylanayin qora qosh-u ko‘zingdan-a,
 O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!..

Birov uchun birovlar tush ko‘rib bermas,
 Minnat qilmay bir bog‘ o‘tin o‘rib bermas.
 Bayramingda oylab bazm qilgan kaslar,
 Boshingga ish tushsa bir kun turib bermas.
 Nomus kuyi tushmasin hech bo‘g‘zingdan-a,
 O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!..

Erk vodiysi – zahmatlarga siylovdir bu,
 Toy qoqilib ot bo‘lguvchi yaylovdır bu.
 Ranj chekmasang nurli-nurli tonglar qayda,
 Sinovdir bu, balki buyuk sinovdir bu.
 Bosh ketsa ham qaytma endi so‘zingdan-a,
 O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!..

Boldan shirin tatir qora bug‘doying ham,
 O‘zingdan bo‘lsa gar shoh-u gadoying ham.
 Bir tan-u jon, bir-biringdan rozi yursang,
 Xudoyim ham sendan rozi, Xudoyim ham.
 Gohi ipak, gohi yaktak bo‘zingdan-a,
 O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!..



Er boshiga ish tushsa, o't kechguvchidir,
Chidaymiz-da, bu zahmatlar o'tkinchidir.
Hurliking haq – qolgan bari o'taversin,
Bu dunyoda eng yorug' baxt – el tinchidir!..
Ayirmasin beminnat non-tuzingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin, xalqim, o'zingdan-a!..

Dunyodan o'sebdi O'ning qiziqi o'sebdi
Dafanida O'ning qiziqi o'sebdi

Xalo bo'lishda kuchli o'sebdi
Maziyu o'sebdi
Sen toldiq'ga qoldiqtan qoldiqtan
Senin shaxsino'ga qoldiqtan
Bir mayzura qiziqi o'sebdi
Kunkuningga qiziqi o'sebdi
Daryo bo'libaridagi o'sebdi

Bayramningda o'sebdi
Yurtim o'sebdi
Ung'ibaridagi o'sebdi

Solar qonaboy O'ning qiziqi o'sebdi
Bo'libaridagi o'sebdi
Bir bo'l codi, qo'shi belani qaddingan keti
Xalo bo'libaridagi o'sebdi
ribox qiziqi o'sebdi u-libaboy
isnasi qosidi mad garisl o'sebdi
ribashbayeri loani salish o'sebdi

Qozak o'sebdi O'ning qiziqi o'sebdi
Inajibek O'ning qiziqi o'sebdi

YOSHLAR MADHIYASI

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Oq yuvib, oq taragansan o'zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.

Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o'g'loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o'pib,
Yovlar yaqin yo'lommagay qo'rg'oningga.

Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo'ladi,
Ko'zlariga ikki dunyo tor bo'ladi.
Shodon daming ko'rolmagan yurtfurushlar,
Bir kun bir kaft tuprog'ingga zor bo'ladi.

Yoningda turgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!..

Gul ko'ringan dashtingdagi giyoh – xasdir,
Soddadil-u ulug'vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho'llaring ham bizga jannat,
Tuprog'ing ham Makka misol muqaddasdir.

Onadek ko'rgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

XALQ BO'L, ELIM

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib, qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang – xalq bo'l, elim!..

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang – xalq bo'l, elim.

Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo'ygan narvon.
Bir mayizni qirqqa bo'lgan bir tan-u jon –
Kunlaringga qaytay desang – xalq bo'l, elim.

Daryo bo'lib jo'shgin endi zavqi ulug',
Bayramingda sevinch ko'z yoshingga qulluq,
Yurtim, degan jasur yurtboshingga qulluq,
Unga qanot bo'lay desang – xalq bo'l, elim.

Bo'lar elning bolalari bir-birin der,
Bo'lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo'l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim!

EY AZIZ VATAN

Ko'zim ochgan kunimdan hamdam,
Hamxonasan men uchun, Vatan.
Oftob bitta, oy bitta, sen ham –
Yagonasan men uchun, Vatan.
O'zbekiston, ey aziz Vatan.

Goh ko'z yoshim tomgan tol beshik,
Goh tuproq tosh, ko'rimsiz eshik.
Sir saqlasam, neki sir aytsam –
Yagonasan men uchun, Vatan.
O'zbekiston, ey aziz Vatan.

Shirmonbuloq, sutingdan ichdim,
Tushimda ham bo'yningdan quchdim.
Sog'inganim, sog'inmasam ham –
Sen onasan men uchun, Vatan.
O'zbekiston, ey aziz Vatan.

Sendan ulug', Sendan muqaddas,
Kim bor yana, ey oliv havas.
Men sig'inib yashagan olam –
Ostonasan men uchun, Vatan.
O'zbekiston, ey aziz Vatan.

IZHORI DIL

Ko‘hna tolbeshikdan
Boshlangan olam,
Senga iddaolar
Qilmay sevaman.

Bir kuni singlim deb,
Bir kuni onam –
Vatan,
Kimligingni
Bilmay sevaman!..

To‘zg‘iydi tuningdan
Tortgan to‘ralar,
Kecha tuzingni yeb,
Sotgan to‘ralar.
Endi pushaymonda
Tuynuk mo‘ralar –
Men sening
Yoningdan
Jilmay sevaman.

Menga yering suyuk,
Osmoning suyuk,
Boqsam, teng
To‘rttala
Tomoning suyuk.
Tovonimga kirgan
Tikoning suyuk



Kaftdan
Zirapchang ham
Yulmay sevaman.

Cho'ksang,
Tur, singlim deb,
Soching silayman,
So'ksang,
Opam deyman,
Umring tilayman.
Sendan ranjimayman,
Gina qilmayman –
Xoh ho'mray,
Xoh jilmay,
Birday sevaman.

Vatan –
Yuragimning
Olampanohi,
Bu dunyo
Bukri bir
Jiydangning shoxi!..
Ko'zim yoshi bilan
Sug'orib gohi,
Ko'ksimda o'stirgan
Gulday sevaman.

Bu yorug' jahonda
Yo'g'-u borimsan,



Tilimning ostida
Novvot-zarimsan.
Sen mening yagona
Payg'ambarimsan,
Men Bilol,
Men Habash –
Qulday sevaman!..



Vazn-mindan sio qiziqar, nisqasiz!

Ko'nechka qiziqar, nisqasiz!

Turroq, timsiz, qiziqar, nisqasiz!

Minota'od, qiziqar, nisqasiz!

So'ng qiziqar, isto, qiziqar, nisqasiz!

Chokas, qiziqar, nisqasiz!

Suyang bir-birugiz, yelkadoz! bo'raq,

Qani, kim bolinib bir so'z-cytozay,

Buz'jon, bitta tan, bitta hosh! bo'raq.

Sevsargiz, avval shu Vatanini sevma,

So'ng shahlo ko'z-o qulbindarini sevma,

Shu yuriqach – yo'n childa sanichigalarini,

Qiziqar yurishar qolqizishmoz.

Yor-yordar yurashtay, te'yilar yurashun,

Yajashkar to'qikha shu xiklanoza.

Sevbargiz, avval shu Vatanini sevma,

So'ng shahlo ko'z-o qulbindarini sevma,

ONA TURKISTONIM

Meni asrar yomon ko‘zdan quchoqlaring,
Tol beshik, beshiklar-la munchoqlaring.
Panoh-u qo‘rg‘onim mening, ey soyabonim,
Ona Turkistonim mening, ota makonim.

O‘zing alla aytding menga, tunlar uxlamay,
O‘g‘lim desang, bayramingda nechun yo‘qlamay.
Tillarimdan o‘pding o‘zing, berding zabonim,
Ona Turkistonim mening, ota makonim.

Men ham qatoringda bir jajji bolangman,
Tillaringda jaranglagan qo‘sishiq, yallangman,
Sen gullasang, men yayrayman, bog‘-u bo‘stonim,
Ona Turkistonim mening, ota makonim.

VATANNI SEVING

Kimlardir kaftida gul ushlab yurar,
Kimlardir qo‘lida palaxmon toshi.
Chayqalib turganda dunyo guldurab,
Yurtning poyidadir yigitning boshi.

Sevsangiz, avval shu Vatanni seving,
So‘ng shahlo ko‘z-u gulbadanni seving!..

Unutmang, bu ko‘hna charxi falakda,
Vatandan boshqasi hammasi mayda.
Ko‘ngilda orzudek osmon musaffo,
Tuproq tinch bo‘lmasa, muhabbat qayda!..

Sevsangiz, avval shu Vatanni seving,
So‘ng shahlo ko‘z-u gulbadanni seving.

Chorlasa, siz qo‘rg‘on bo‘ling, tosh bo‘ling,
Suyang bir-biringiz, yelkadosh bo‘ling.
Qani, kim botinib bir so‘z aytolgay,
Bitta jon, bitta tan, bitta bosh bo‘ling.

Sevsangiz, avval shu Vatanni seving,
So‘ng shahlo ko‘z-u gulbadanni seving.

Shu yurt tinch – yo‘q dilda sanchiqlaringiz,
Qiqirlab yurishar qalliqlaringiz.
Yor-yorlar yarashar, to‘ylar yarashar,
Yarashar to‘qlikka sho‘xliklaringiz.

Sevsangiz, avval shu Vatanni seving,
So‘ng shahlo ko‘z-u gulbadanni seving!

VATAN, YAGONASAN

Bobolar kalomi tilimda doim,
Sen uchun yuragim qo'limda doim.
Sog'inaman yurgan yo'limda doim,
Vatan, yagonasan dilimda doim.

Bahorlar o'tadi, yozlar o'tadi,
Osmonni to'ldirib g'ozlar o'tadi.
O'zingdan o'zga so'z – sozlar o'tadi,
Vatan, yagonasan dilimda doim.

Bu yorug' olamning jannatlari bor,
Vatandan bo'lagin minnatlari bor.
Joningga jonimning payvandlari bor,
Vatan, yagonasan dilimda doim.

Dunyolar ichida o'zing bir dunyo,
Qo'yningda yursam ham goho sir dunyo.
Onam deymi seni, singlim deymi yo,
Vatan, yagonasan dilimda doim.

To jahon bor ekan, hamisha bor bo'l,
Temurning yurtisan, doim tojdor bo'l.
Poyimga baxshida jonimga yor bo'l,
Vatan, yagonasan dilimda doim.

POSBONLARMIZ

Alpomishning avlodlari
Yuragida asrar yurtin.
Yigit borki – millat omon,
Yigit borki – qo'rg'on butun.

Yurtga joni qalqonlarmiz,
Biz tinchlikka posbonlarmiz.

Rayhonlari sochib ifor,
Biz ko'z ochib ko'rgan diyor.
Kindik qoni tomgan tuproq –
Vatandan ham aziz ne bor.

Shu yurtga chin o'g'lonlarmiz,
Biz tinchlikka posbonlarmiz.

Vatan bizni ardoqlagay,
Biz Vatanni asragaymiz.
Buyuk Sohibqiron haqqi,
G'animga bosh egmagaymiz.

Jangda mardi maydonlarmiz,
Biz tinchlikka posbonlarmiz.

O'ZBEKISTON

Yetmish yil ko'z yoshing artdi armonim,
Qora qumg'onda choy – moysiz yovg'onim.
Sarbonsiz cho'llarda daydigan Majnun,
Ipak yo'llarida izsiz karvonim.
Salom, o'zligiga qaytgan ummonim,
O'zimni bo'lgan O'zbekistonim.

O'zbekiston! O'zbekiston!
O'zbekiston, yurtim mening,
Mening ona-Vatanim.

Madh etib sen bilan maqtanmoq oson,
Mulki Samarqand deb, mulki Xuroson.
O'zingniki emas hatto o'chog'ing,
O'zingdan bir kuni chiqmasa sulton.
Salom, Temurlardan tomchigan qonim,
O'zimni bo'lgan O'zbekistonim.

O'zbekiston! O'zbekiston!
O'zbekiston, yurtim mening,
Mening ona-Vatanim.

Paxtadek, ko'nglingda yo'q sening g'ubor,
Tan olsa dunyolar oldi ikki bor.
Shoh bo'lib shoirin e'zozlagan yurt,
Ey, sen Alisherni asragan diyor.
Mard dilga hamisha ochiq jahonim,
O'zimni bo'lgan O'zbekistonim.

O'zbekiston! O'zbekiston!
O'zbekiston, yurtim mening,
Mening ona-Vatanim.

VATANING BO'LSIN

Vatan jon, birovga berib bo'lmaydi,
Bilsang gar, yurakda sherik bo'lmaydi.
Panohdir tog'lari, bog'lari senga,
Vatansiz jangga ham kirib bo'lmaydi.

Vatansiz bo'lmoqdan asrasin Xudo,
Jon elim, sen meni aylagin duo.
Ayvонимга kelgan qaldирг'oching ham –
Men uchun baxt qushi, men uchun Humo.

Havosi musaffo gulshaning bo'lsin,
Avvalo, boshingda Vataning bo'lsin.
Qush bo'lsang, sayrovchi chamaning bo'lsin,
Avvalo, boshingda Vataning bo'lsin.

Ayt, qani, o'zingdan bormikan ulug',
O'zbegin, men senga qilaman qullug'.
Chunki ajdodlarim yotgan har parcha,
Har qarich tuprog'ing non kabi ulug'.

Vatan – jon, birovga berib bo'lmaydi,
Bilsang gar, yurakda sherik bo'lmaydi.
Panohdir tog'lari, bog'lari senga,
Vatansiz jangga ham kirib bo'lmaydi.

ALPOMISHLAR YURTI

Alpomishlar yurti bu diyor,
Doston bo‘lgan Rustamlari bor.
Shu o‘lkada oftob ayvoni,
Shu o‘lkadan boshlanar bahor.

Go‘zal yurtning ko‘rkiga chiroy –
Uzunkokil malak Barchinoy.
Hur qizlari ko‘cha to‘ldirsa,
Go‘yo yerda suzib yurar oy.

Men ham shu el farzandidirman,
Ko‘z qorasi, dilbandidirman.
Erkalanib bag‘rida o‘sdim,
Men ham uni jondan suyarman.

Alpomishlar yurti bu diyor,
Doston bo‘lgan Rustamlari bor.
Shu o‘lkada oftob ayvoni,
Shu o‘lkadan boshlanar bahor.

INSHOOLLOH

O‘zbekiston, bo‘yi-basting ko‘rsat endi,
Pahlavonim, yetdi senga navbat endi,
Olam uzra hilpirasin abad endi –
Sohibqiron Temur tug‘i – yashil bayroq,
Inshoolloh!

Erk degani o‘zi kelib eshik qoqmas,
Jon chekmasang, osmonlardan omad yog‘mas,
Qatoringda botirlaring bo‘lsin og‘mas,
Gurkirasin Alpomishlar o‘tgan tuproq,
Inshoolloh!

Oltin beshik avlodining maskanisan,
Alisherlar, Ulug‘beklar vatanisan,
Yashnagani – o‘z asliga qaytganisan,
Turon yurtda yonsin qayta so‘ngan chiroq,
Inshoolloh!

Alla aytsang, ayvoningda uxlар quyosh,
Senga mudom iymon yo‘ldosh, islom yo‘ldosh,
Bor bo‘lsin shu qirq o‘rim soch, o‘smali qosh,
Oq yaktag-u beqasam to‘n, shohi belbog‘,
Inshoolloh!

Totuv yurtda yantoq o‘zin tog‘ aylagay,
Bir-birini qo‘llagan el kam bo‘limgay,
Bolalari Turkistonni bog‘ aylagay,
Abad yashar, xazon bilmas endi bu bog‘,
Inshoolloh!

O'ZI ASRASIN

Hotam dunyo himmatlari bor,
Hikmati bor har bir tuhfasin.
Yuz yilda bir tug‘ilar sardor,
Parvardigor o‘zi asrasin.

Beshikda tinch uxlар go‘dak jon,
Kulgusiga sadaqa bu jon.
Millat uchun kim bo‘lsa qalqon,
Parvardigor o‘zi asrasin.

Yomon ko‘zdan saqlasin zinhор,
Kamolingni ko‘rolmaslar bor.
Kimki karvon boshidagi nor –
Parvardigor o‘zi asrasin.

Dunyoga boq, xayol yetmagan
Burchagi yo‘q olov ketmagan.
Osmoni tinch, osuda Vatan
Parvardigor o‘zi asrasin.

Boshin silab yosh-u kattasin,
Chinordayin shox-u novdasin,
Asraguvchi Temurzodasin
Parvardigor o‘zi asrasin.

Kengashganga dunyo keng, axir,
Biring yoqa, biring yeng, axir.
Qavmim, kel, deb kim ochsa bag‘ir –
Parvardigor o‘zi asrasin.

Ko'rdik, axir, mum yutgan, mulzam,
Bir haftalik podsholarni ham.
Sarbonini, xalqidek o'ktam –
Parvardigor o'zi asrasin.

Yurtim, yod et nahor-u shoming,
Tilingda shu bo'lsin kaloming:
Kim tiklasa dini isloming –
Parvardigor o'zi asrasin.

Joningni tut joni fidoga,
Aytganing bor ekan Xudoga.
O'zbekiston, qo'l och duoga –
Parvardigor o'zi asrasin.

TILAK

Har kimsaning bo‘lsin o‘zin boshpanasi,
Har kimsa o‘z kulbasida davrin sursin.
Odamni-ku aytmay turay, bu dunyoda
Hatto qushning yot butoqda ini qursin.

Tirik inson bir kuni och, bir kun to‘qdir,
Bir kun to‘kin, bir kun burda noni yo‘qdir.
Bir o‘g‘il-ku otasiz ham kunin ko‘rgay,
Otasi yo‘q xalqning ko‘rgan kuni qursin!..

Garchi boshin eggani yo‘q edik bizlar,
Ekkanidan tekkani yo‘q edik bizlar.
Vatanida Vatani yo‘q edik bizlar,
O‘scha zulmat o‘tmish, sening uying kuysin.

O‘z elingda endi hushing, o‘zing chog‘la,
O‘z qo‘lingda endi qushing, o‘zing ovla.
Oltinlaring tirnoqlaring bilan kovla
Va yig‘ib qo‘y! Bolalaring uchun tursin.

Beshiklarga to‘lib ketsin bir o‘zbeklar,
Tili chiqmay ko‘zi chaqnar hur o‘zbeklar –
Davlatbeklar, E’tiqodbek, Ilymonbeklar
Bobojon, deb soqollaring silab tursin.

Men bu she’rni yozganim yo‘q atay o‘ylab,
Men she’r yozdim gurkiran yurtga bo‘ylab.
Shunday yurtni Xudoyimning o‘zi qo‘llab,
Shunday yurtni Xudo o‘zi asrab yursin!..



O'ZBEK DEGAN NOM

Bir to'kilib tag'in qomat tikladik,
Yelkalarga millat yukin yukladik.
Ozod vujudlarda ruh bo'ldi bino,
Binolar o'rnida davlat tikladik.

Qay kun tildan uchdi qadrdon kalom –
Dunyolarni quchdi o'zbek degan nom!

Boshin ne toshlarga urdi bu diyor,
Necha vayron bo'ldi, qurdi bu diyor.
Tojmahal me'mori, Nilning mirobi,
Imom Buxoriylar yurti bu diyor.

Bizni yo'qlaganga bizdan ham salom,
Dunyolarni quchdi o'zbek degan nom!

Vatan, aylanayin tuproqlaringdan,
Bog'da gul, tog'dagi giyohlaringdan.
Boqsang, nur yog'ilar nigohlaringdan,
Ayro tushmay aslo quchoqlaringdan.

Asqatdi sen o'zing qurgan zuvolam,
Dunyolarni quchdi o'zbek degan nom!

O'ZBEKMOMO

Farishtalar fayzi yog'ar yuzlaringdan,
 Arimasin quvonch endi, O'zbekmomo.
 Yursang oftob ergashadi izlaringdan,
 Oftob bo'lib nur soch endi, O'zbekmomo.

Keldi qaytib yot yurtlardan karvonlaring,
 Qo'ng'irog'i ko'ksingdagi armonlaring.
 O'zingniki o'zing yopgan shirmonlaring –
 Senga tegmas qirmoch endi, O'zbekmomo.

Saroblarga sajda qildik yetmish yil biz,
 Yo'q Vatanni Vatan bildik yetmish yil biz.
 Chin Vatanning poylariga cho'kaylik tiz,
 Sen yo'l boshla, yo'l och endi, O'zbekmomo.

Ey sen hikmat diyori, ey sirli bag'ir,
 Ne dahoga yo'l ko'rsatding o'zing, axir.
 Temurga ham alla aytgan o'zing, axir,
 Qaytar qalbga ishonch endi, O'zbekmomo.

Ozod yurtda, obod yurtda bor kelajak,
 Hur o'lkaga mudom yo'ldosh, yor kelajak.
 Hali ne-ne Alpomishlar tug'ilajak,
 Baxting boshga gultoj endi, O'zbekmomo.

To'kilmasin sochingdagi bitta tolang,
 Omon bo'l sen, omon bo'lsin dasht-u dalang.
 Cho'pon bolang, dehqon bolang, sulton bolang –
 Kel, duoga qo'l och endi, O'zbekmomo!..

O'ZBEK BOLASI

Ko'k dalalar, ko'm-ko'k dalalar,
Ozod diyormi dalasi.

Bir tomon qaynar buloq,
Bir yonda oyning shu'lasi.
Bunda bulbul chah-chahlar,
Bunda qumri nolasi.

Handalak hidi bilan
Ulg'aydi o'zbek bolasi.

O hayot, gulgun hayot,
Hamisha bor bo'lgin, hayot.

Baxtimga ko'z tegmasin,
Menga yor bo'lgin, hayot.

Tarqalibmas, to'planib,
Jamlanib har jolasi,

Bir tan-u bir jon bo'lib,
Ko'paydi o'zbek bolasi.

Parcha yer, parcha bulut,
Parcha osmonga shukur.

Menga taqdir tuhfasi –
Nurli makonga shukur.

Tushmagay, to'kilmagay
Sochlaring bir tolasi.

Yurt uchun Hech narsadan
Qaytmaydi o'zbek bolasi.

Biz ahil, olam ahil,
Gul-u giyohlar ahil.

Tog'dagi toshlar ahil,
Bog'da yaproqlar ahil.
Xush erur shotutlari,
Suv bo'yida soyasi.
Tut beshiklar bag'rida
Ulg'aydi o'zbek bolasi.

Dala to'la belanchak,
Oftob uning doyasi.
Ko'k dalada rizq terib,
Xalq bo'ldi o'zbek bolasi.

ANDIJONIM

Bog‘i shamol bo‘ylarida kezib yurdim,
Bobolarim pok ruhini sezib yurdim.
Tuprog‘ini kaftga olib, ko‘zga surdim,
Boburday pahlavon yurti, Andijonim.

Bunda yashar o‘z ahdiga vafodorlar,
Ko‘zni olar lo‘ppi-lo‘ppi paxtazorlar.
Gul undirgan, dalasidan ketmay qorlar,
Aziz bobodehqon yurti, Andijonim.

Jannatmakon so‘lim, shahar gulzorlari,
Uchaman der Asakaning tulporlari.
Mard elimning lochinlari, shunqorlari –
Muhammadqodir polvon yurti, Andijonim.

Bu o‘lkada Mohlaroyim izlari bor,
Parilarday qoramayiz qizlari bor.
Jamolidan oy uyalgan yuzlari bor,
Tandir-tandir shirmon yurti, Andijonim.

Bu makonni Xizr bobo qo‘llab yurar,
Xirmoniga pok nafasin yo‘llab yurar.
Tushida ham dalasini o‘ylab yurar,
Osmon qadar imkon yurti, Andijonim.

O‘zbekiston bag‘rida hur Andijonim,
O‘zbekiston bag‘rida hur Andijonim!

* * *

Quyoshga qarab oqqan suv,
Dardimni aytgan edim-ku,
Dodimga yetmaysan nega,
Quyoshga qarab oqqan suv?..

Qanday yuzsiz do'stimsan,
Ohlar to'la ko'ksimdan
Oh urib ketmaysan nega,
Quyoshga qarab oqqan suv?

Suvingga qo'shib yoshimni,
Qiblaga qaratib boshimni,
Yotqizib ketmaysan nega,
Quyoshga qarab oqqan suv?..

Men kimman? Bir yolg'izman,
Suv bo'yida bir yalpizman.
Oqizib ketmaysan nega,
Quyoshga qarab oqqan suv?

Quyoshga qarab oqqan suv,
Onamdek meni boqqan suv...



BIR KUNI

Bir kuni,
Bir alvon
Zamon keladi,
Zamin uzra
Omon-omon bo'ladi.
O'n yilmi,
Yuz yilmi o'tib oradan,
Urushlar,
Nizolar ketib oradan,
To'plar
Adirlarda bug'doy o'radi,
Tanklar
Dalalarda paxta teradi.
Millatlar,
Elatlar,
Oq tan, qora tan
Hammasi
Hazrati inson bo'ladi,
Olam guliston bo'ladi
Bir kuni...
– Shoirlar-chi, bobo,
Shoirlar nima bo'ladi?
– Shoirlarning shodlikdan
Yuraklari yorilib o'ladi!

O'ZBEK

Qiyosi yo'q aslo, mehri bir daryo,
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.
Bolalariga-ku bildirmas, ammo,
Dunyoda bolam, deb yashaydi o'zbek.

O'nta bo'lsa, o'rni boshqa uning-chun:
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun,
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Yuzlari lolam, deb yashaydi o'zbek.

Bir qo'lida belanchak, bir qo'lida Qur'on,
Bir yelkada ketmon, birida iymon,
Barchaga barobar bir oftobsimon,
Yashnasin olam, deb yashaydi o'zbek.

Momolari tetik yuzga kirsa ham,
Bobolari qaysi yigitlardan kam?
Nabirasi bo'lsa bitta uyga jam,
To'shak yetmay to'nin to'shaydi o'zbek.

Kindik qoni tomgan tuproq unga – shon,
Kerak bo'lsa, beso'z baxsh etar-u jon –
Ko'krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!
Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek.

Ehtirom etganga ehromlari bor,
Kekkayganga bo'yin egmaydi zinhor,
Beshik to'la jajji Islomlari bor –
Tosho'tmas qo'rg'onga o'xshaydi o'zbek.

POSBONLAR

Sizda orom qayda,
Sizda tin qayda.
Siz to'yib uxlagan bitta tun qayda.
El-yurt oromini asragan zotlar,
El mehri asrasin Sizni har joyda!..

Sizni uchrataman tog'da, dalada,
Xizmatda hamisha – qorda, jalada.
Sizga sabot bersin, Sizga kuch bersin,
Buyuk zotlar ruhi shunday pallada...

Har kun oftob bilan sog' ko'rishib yuz,
Uydan omon chiqib, omon qaytingiz.
Rizqi ulug' bo'lsin, ko'ksi ulug' bo'lsin,
Xonadoningiz-u mamlakatingiz.

Yo'llar ravon bo'lsin, yo'llar oq bo'lsin,
Bahor maysalari ko'k chiroq bo'lsin.
Burchga sadoqatli ey fidoyilar,
Pokligingiz Sizga ko'zmunchoq bo'lsin!..

Sizda orom qayda, sizda tin qayda,
Siz to'yib uxlagan bitta tun qayda.
El-yurt oromini asragan zotlar,
El mehri asrasin Sizni har joyda.

SAMARQAND

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rib qaytaman.
U qon yig'lab turar har safar:
Men dardimni kimga aytaman?..

Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam.
Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam...
Men dardimni kimga aytaman?

Sezmay qoldim. O'shanda chog'im,
Yulduzlarda ekan nigohim,
Bilmadim ne edi gunohim...
Men dardimni kimga aytaman?

Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim...
O'z bolamdan kutmagan edim!..
Men dardimni kimga aytaman?

Tanim muzlab, goh tosh qotaman,
Men shoh emas, axir, otaman.
Go'rimda ham o'ylab yotaman,
Men dardimni kimga aytaman?

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rmay kelmayman.
U menga qon yig'lar har safar:
Men dardimni kimga aytaman?..

AMIR TEMUR

Dunyo mendan, men dunyodan o'paladim,
Jahongirning qabrin ochgan kazzoblar,
Biri olim, yana biri arboblar.

Xondek yashab o'tdilar-u olamdan,
Amir Temur ruhi meni azoblar.

O'shal kun sen qayda eding, bolam, der,
Qulog'ingga yetmadimu nolam, der.
Meni qo'zg'ab nima topdi olam? — der,
Amir Temur ruhi meni azoblar.

Tirik ersam tinmasdi-ku yarog'im,
O'lik jondin na istarlar, qarog'im.
Qo'lim qayda der, qayda bosh chanog'im,
Amir Temur ruhi meni azoblar.

Bu qandayin ko'rgulik, yo rabbano,
Yovuz yotdan yer ostida yo'q panoh!
Bobur qayda der, qayda der Mironshoh,
Amir Temur ruhi meni azoblar.

Dunyo topdim deydi, dunyo yig'madim,
Men el uchun ot ustida uxladim.
Nahot endi o'z go'rimga sig'madim,
Amir Temur ruhi meni azoblar...

Men ne qilay,
Men bir ojiz bandaman,
Ruhlar bilan bir jon-u bir tandaman.
Uzr so'rab har kun Samarqanddaman,
Amir Temur ruhi meni azoblar...

MARSIYA

Farzand dog‘i kuydiradi kuygan sari,
Diydalari ko‘z o‘ngidan ketmas nari.
Onazorin tilab olgan bolalari,
Afg‘on qirlarida qolgan bahodirlar.

Alvon-alvon gullar yog‘ar adirlarga,
Qo‘l yetmaydi sizlar yotgan qabrlarga.
Olis yurtda yo‘ldosh bo‘lib Boburlarga,
Afg‘on qirlarida qolgan bahodirlar.

Jaloliddin qoni jo‘shdi qoningizda,
Umid qilib uzilmagan joningizda.
Navoiydek zotlar yotar yoningizda,
Afg‘on qirlarida qolgan bahodirlar.

Yigit bo‘lib yayrabgina yurmay ketgan,
Bir qiz kokillarin ko‘zga surmay ketgan.
Tug‘ilgan bolasin bo‘yin ko‘rmay ketgan,
Afg‘on qirlarida qolgan bahodirlar.

Xazon bosib kun ko‘rmagan g‘ussalarim,
Paxtazordan chiqqan ozg‘in jussalarim.
Uvolgina ketgan Mo‘min Mirzolarim,
Afg‘on qirlarida qolgan bahodirlar.

Kimga kerak bo‘ldi, kimga kerak bo‘ldi?
Siz o‘ldingiz, kimning bo‘yi terak bo‘ldi?
Bu dunyoda o‘lim ham bir ermak bo‘ldi,
Afg‘on qirlarida qolgan bahodirlar.

Qon dilimdan sha'ningizga she'r tiladim,
Dunyo mendan, men dunyodan o'pkaladim.
Tug'ishgandan aziz mening ukalarim,
Afg'on qirlarida qolgan bahodirlar.

Farzand dog'i kuydiradi kuygan sari,
Diydalari ko'z o'ngidan ketmas nari.
Onazorin tilab olgan bolalari,
Afg'on qirlarida qolgan bahodirlar.

Yigit yot'il o'maydi kuchli
Biz o'g'ani kibysiz o'sezgash
Yo'qilasax sonomiga o'zlas
Ternig'izda qaytgan bolalari
Askartikdan o'liq qaytgan bolalari
Qaysiq tigribaliga qoldi qaytgan bolalari
O'tda kurysa kuryib, o'lib o'libagan
Yo bir jang'a qo'min to'liq o'libagan
Askartikdan o'liq qaytgan bolalari

Onangiz zo'g qaytgan bolalari
Aybi nima bolamni, deb hayronchir?
Tinch lezgibol qaytgan bolalari
Askartikda qaytgan bolalari

O'z uyida modod olibdi ibxid sarmida
Yot yutmodod illit dov, a-modod qitlo'di
Mozorjusjlop qaytgan bolalari
Askartikda modod ollusdi qaytgan bolalari

Qisqagina umr ko'rib, uzoq

yashab kelayotgan zotlarga qarang...

Ahmad Yugnakiy

Tushimga kiradi Qodiriy bobom,
Bemador, bemajol, behol, beorom.

Egniga eski bir to'n kiyib olgan,
(Shineldir balki u, kimdandir qolgan).

O'sha to'n egnida poxol ham borday,
Bobomning yuzlari oqargan qorday.

Yo'q, yuzi somonga o'xshaydi uning,
Charaqlab turguvchi ko'zi to'la mung...

Tushimga kiradi Qodiriy bobom:
Tur deydi, muncha ko'p uxlading, bolam.

Boq, bu dam aylanib jo'xorizoring,
O'rog'in qayraydi onayizoring.

U o'rib bo'lguncha rizq-u zaringni,
O'ynatib tur chiqib ukalaringni.

Va mening salomim ayt, der ularga –
Bobosin sog'ingan musichalarga...

Tushimga kiradi Abdullo bobom,
Oh oltin bobom-a, voh tillo bobom.

Qaro yer qa'rida qon yig'lab qolgan
Akmal Ikrom bobom, Fayzullo bobom!

TAVALLO

O'zbek degan cho'ng chinorning novdasi,
Yashnab ketib so'lib qaytgan lolalar.
Oqto'rg'aydek ozg'ingina gavdasi,
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar...

O'zbekka yov har joyda bor, hamdam yo'q,
Undan yuvosh, undan mo'min odam yo'q.
O'zbekka o'q har joyda bor, malham yo'q,
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar.

Yigit yo'li bo'lmaydi-ku xatarsiz,
Biz o'ylardik – bir kun kelib qaytarsiz!
Temir tobut ichra qaqshab yotarsiz...
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar.

O'z yurtida suvg'a cho'kib o'lman,
O'tda kuysa kuyib, o'ksib o'lman.
Yo bir jangda qonin to'kib o'lman –
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar...

Onangiz zor yig'lab bag'ri giryondir,
Aybi nima bolamni, deb hayrondir?
Tinch kunlarda uvol ketgan yomondir,
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar...

O'z uyida erka o'g'lon edingiz,
Yot yurtlarda buncha sarson bo'ldingiz!
Mozorlarda o'n sakkizga to'ldingiz,
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar...

QAYDA BOR

Yomg‘ir yog‘ar shitirlab,

Nurmi, ipak tolalar.

Bahor kelsa qiqirlab,

Qirga chiqar lolalar.

Lolalar har joyda bor,

Bizda bori qayda bor?..

Ko‘kni bulut o‘raydi,

Yerni yomg‘ir allalar.

Rayhon hidin taraydi,

Donga intiq dalalar.

Dalalar har joyda bor,

Bizda bori qayda bor?..

Saman yo‘rg‘a yer chizib,

Toshda omoch sirg‘alar.

Oqar oyni oqizib,

Jildir-jildir jilg‘alar.

Jilg‘alar har joyda bor,

Bizda bori qayda bor?..

Qalbga taskin izlasang –

Turg‘un cholni so‘ragin.

„Tanovar“ni tinglasang,

Sel bo‘ladi yuraging.



Navolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?..

Ko'ringanni duolar
Qilar bizda momolar,
G'animga ham omonlik
Tilar bizda momolar.

Momolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?..

Bizning bo'ston qayda bor,
Shohimardon qayda bor,
So'lim Surxon qayda bor!
Samarqand non qayda bor-a,
O'zbekiston qayda bor?!

ASKAR MAKHTUBI

Bu mehr sut bilan so'rilgan qonga,
Ko'zlarga to'tiyo tuprog'i-gardi.
O'g'illar suyanchiq ota makonga,
Vatanni qo'riqlar yigitning mardi.

Bizdan xavotir olmang, onajon,
Yulduzlar yoritsin oqshomingizni.
Tinch bo'lsin momo yer, musaffo osmon,
Endi biz asraylik oromizingizni.

Uyqungiz qochmasin xatlar kelmasa,
Behuda to'kmangiz ko'z yosh nolangiz.
Tug'ilgan yurtiga qalqon bo'lmasa,
Dunyoga nimaga kelgan bolangiz?

Bizdan xavotir olmang, onajon,
Yulduzlar yoritsin oqshomingizni.
Tinch bo'lsin momo Yer, musaffo osmon,
Endi biz asraylik oromizingizni.

Duolar qilsangiz bizni siz qo'llab,
Bir kun sog'-salomat qaytib kelarmiz.
Siz aytgan hovliga sovchilar yo'llab,
Siz topgan qiz bilan to'ylar qilarmiz.

Bizdan xavotir olmang, onajon,
Yulduzlar yoritsin oqshomingizni.
Tinch bo'lsin momo Yer, musaffo osmon,
Endi biz asraylik oromizingizni.

BINAFSHA

Suv bo'yida binafsha

Bahor bilan uchrashdi.

Bo'yga yetgan qizlarga

Gala sovchi ulashdi.

Binafshajon, binafsha,

Kokillari haydarsan.

Menga loyiq qiz topsang,

Qulog'imga aytarsan.

Men g'aribga sovchilik

Sendan o'zga kim qilgay.

Gulday nozik qiz qalbin

Sen bilmasang, kim bilgay.

To'y qilamiz keng chaman,

Ariqlarning bo'yida.

O'zing o'ynab berasan

Muhammadning to'yida.

Ayt, ayt, u qiz qani,

Binafshajon, binafsha.

Ayt, ayt, aytaqolgin,

Binafshajon, binafsha.

TUSHUNMAYSAN

Ma'yus kunim ko'zim tushsa,
Kuyar osmon, tushunmaysan.
Meni samo tushungaydir,
Sen, ey inson, tushunmaysan.

Kuyib ko'ksim, o'tar bo'lsam,
Oqar bo'lsam-ketar bo'lsam,
Meni daryo tushungaydir,
Sen, ey ummon, tushunmaysan.

Men ham shaydo, men ham maftun,
Men ham hech kimi yo'q Majnun.
Meni Laylo tushungaydir,
Sen, ey jonon, tushunmaysan.

Mening yo'lim uzun armon,
O'zim dovon, o'zim karvon.
Meni sahro tushungaydir,
Sen, ey sarbon, tushunmaysan.

Mening borim erur ko'nglim,
Mening yorim erur ko'nglim.
Ma'yus tanho tushungaydir,
Sen, ey xandon, tushunmaysan.

Ma'yus kunim ko'zim tushsa,
Kuyar osmon, tushunmaysan.
Meni Olloh tushungaydir,
Sen, ey xoqon, tushunmaysan.

Ko'nglim gul, ko'zlarim guldir,
Yuzim gul, qo'llarim guldir.
Meni sabo tushungaydir,
Sen, ey to'zon, tushunmaysan....

G'uborimdir bo'yi rayhon,
Minorimdir tilim biyron.
Meni dunyo tushungaydir,
Sen, ey nodon, tushunmaysan.

Yer aylandi,

Yer yugurib
Sening oydek yuz
Ter
Qalib
Bitta
Nims
Tin
Bobodeh
Bo
Men ham
Ichib
Shoir
Uchib
O
Desder
Kechib
Ser
Bobodeh
O
Bobodeh
O

BOBODEHQONIM

Yer aylanar,
Yer aylanar,
Yer yugurib tinmaydi,
Yaktagingning yenglaridan
Ter yugurib tinmaydi,
Qo'ling tegmay bu dunyoda
Bitta giyoh unmaydi,
Tin bilmagan jonim mening,
Bobodehqonim mening.

Oftob chiqar,
Oftob botar,
Cho'g'lar sochib tanangga,
Bir kungina bormay qo'ysang,
Nima qilar dalangga?..
Bir shonacha parvonalar
Bo'lolmaysan bolangga,
Tashnayi nolonim mening,
Bobodehqonim mening.

Olam yaralgandan buyon
Dehqon kimni aldabdi,
Dehqon qo'lin qabartirgan
Ketmon kimni aldabdi,
O'zbegimning peshvolari
O'zbegimni aldabdi...
Oh, lol-u hayronim mening,
Bobodehqonim mening.

Sen hamisha haq tomonsan,
Sen haqiqat tomonsan,
Inson zotin yorug'likka
Yetaklovchi sarbonsan,
O'zing bemor,
O'zing tabib,
O'zing malham, darmonsan,
Bag'ri keng osmonim mening,
Bobodehqonim mening.

Yer aylanar,
Yer aylanar,
Yer yugurib tinmaydi,
Sening oydek yuzlaringdan
Ter yugurib tinmaydi,
Qo'ling tegmay bu dunyoda
Bitta giyoh unmaydi,
Tin bilmagan jonim mening,
Bobodehqonim mening.

Men ham sening tuz-u noning
Ichib yurgan bolangman,
Shoirmam deb qushday qo'nib,
Uchib yurgan bolangman,
O'zing bilan paykalda suv
Kechib yurgan bolangman –
Senga bu dostonim mening,
Bobodehqonim mening...

KUMUSH

Marg‘ilonda Kumushni ko‘rdim,
Ko‘ziga yosh to‘lib turibdi.
Sochlarini maydalab o‘rib,
Otabegin izlab yuribdi.

Tongda turib qalam qoshiga
O‘sma qo‘ygan ekan – quribdi.
Ko‘zdan oqqan achchiq yoshiga,
O‘smasini yuvib turibdi...

Meni bir o‘y qiyndi yomon,
Yana yurak o‘ynadi yomon.
Qo‘yvor zamin, qo‘yvor osmon,
Men uyimga yetaman qachon?
Uchib keldim uyimga omon,
Beshyog‘ochda gullabdi o‘rik.
Toshkentga qiz berma, Marg‘ilon –
Qodiriy yo‘q, Zaynablar tirik.



KUNDOSHLI UY

Mushtipar-u munglig' sensan,
Ko'zingda yoshlar shashqator.
Na beva, na qalliq sensan,
Oylar chiqib, oylar botar.

Xoh Kumush bo'l, xoh bo'l Zaynab,
Baxtliman deb aytolmaysan.
Kundoshli uyda sen yayrab
Yasholmaysan, yasholmaysan.

Bek bo'lmasa cho'pon – boring,
Bag'ri-diling to'lsin ekan.
G'arib bo'lsa hamki yoring,
O'zingniki bo'lsin ekan.

Kundoshli uy vayronadir,
Osh o'rniga ayron tatir.
Koshonang bo'lsa ham qasr,
G'amxonadir, g'amxonadir.

Xoh Kumush bo'l, xohi Zaynab,
Baxtliman, deb aytolmaysan.
Kundoshli uyda sen yayrab
Yasholmaysan, yasholmaysan.

TURKMAN QIZ

Aylanaman, Sharqni kezib aylanaman,
Iboli bir yor topolmay o'ylanaman.
O'z yurtimning suluvlari til uqmasa,
Uzun ko'yak turkman qizga uylanaman...

Ko'zim tushsa, yuzlari lov-lov yonadi,
Yelkasida qirqta chaman tovlanadi,
Kesilmagan kokillari to'lg'onadi,
Uzun ko'yak turkman qizga uylanaman.

U elining urflarini qilmaydi xor,
Beshigi hech allasiga bo'lmaydi zor,
Qoshida momosi qo'ygan o'smasi bor,
Uzun ko'yak turkman qizga uylanaman.

U ajralib turar turfa gul ichida,
Oftob chiqib, oftob botar kulgichida,
O'z tilida gapirmaydi til uchida,
Uzun ko'yak turkman qizga uylanaman.

Bir xil libos kiymish, ko'rdim, nechalari,
Oybaldog'i yonib turar kechalari.
Yashnab ketar yursa Toshkent ko'chalari,
Uzun ko'yak turkman qizga uylanaman.

Go'shangaga kirganimda yorga yetib,
Menga o'lan so'ylab berar yodlar etib.
Bobolarim ruhlarini shodlar etib,
Uzun ko'yak turkman qizga uylanaman.

KO'NGLIMDAGI YOR

Muhabbat bog'iga kirmadim bir bor,
Suyib, bir gulga qo'l urmadim bir bor.
Endi tunlar yig'lar menga qo'shib,
Ko'nghlimda bir yor-u qo'ynimda bir yor.

Biri-birisiga o'xshamas, yo rab,
Ko'zimning yoshlari to'xtamas, yo rab.
Kuyarman bir unga, bir bunga qarab,
Ko'nghlimda bir yor-u qo'ynimda bir yor.

Birin erkayman dudog'im bilan,
Birisin erkalab nigohim bilan.
Yasharman savob-u gunohim bilan –
Ko'nghlimda bir yor-u qo'ynimda bir yor.

Birin hur deyinmi, birin guloyim,
Suymaganim suyganimdan muloyim.
Bu qanday ko'rgilik ekan, Xudoyim –
Ko'nghlimda bir yor-u qo'ynimda bir yor.

Daryoman, ikkita qirg'oqda ko'zim,
Tovonimda bo'zim, tomoqda bo'zim.
Ikki o't ichida qiynoqda o'zim –
Ko'nghlimda bir yor-u qo'ynimda bir yor.

O'ksimasin zardob so'la ko'ngilchangiz.
Daryo-daryo ko'z yoshim bor, che'milsangiz.
Men ham mashhur bo'larmidim, tug'ilsanaz.
Tug'ilmagan qo'shiqlarin, sizdasa noz.

KONIQIYOR O'TINCH

Farg' onamning parivashlari,
Ey, jonimning qarindoshlari,
Bo' yningizga marvarid bo'lsin
Marjon-marjon ko'zim yoshlari!..

Muhabbatdan aytishib o'lan,
Quvalashib o'sdik siz bilan.
Ketdim keyin bulutday ko'chib,
Qaytay endi qaysi yuz bilan.

Yodimda sof tuyg'ularingiz,
Jaranglagan kulgularingiz.
Hayotimda bo'lmasangiz ham,
Xayolimda yurdilaringiz.

Siz men uchun o'sha-o'sha sho'x,
O'sha-o'sha erka bo'ldingiz.
Qo'rg'onimga kelmasangiz ham,
Armonimga beka bo'ldingiz.

O'yin dedik bu yorug' olam,
O'yin qildik muhabbatni ham.
Qizlar, o'lan aytib gohida
Eslab qo'ying Muhammadni ham.

Co'shangaga kengimda yorga yetib,
Men ga o'lan so'ylab berar yodlar etib.
Soholarim rishlarini shodlar etib,
Unut ko'yik turkmen cizga uylanamen.

Biz bahorga oshiq bo'ldik, kuzdan uzr,
Xazonlarda qolib ketgan qizdan uzr.
Har ne o'tsa bizdan o'tdi, bizda gunoh,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr.

Sog'inchlarga singil bo'ldi suyukli yor,
Men merovda na mehr bor, na ko'ngil bor.
Ozroq ilhom, ko'proq sharob qildi xumor,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr.

Tilimdan bol tomdi boqib olamga goh,
Bir shirin so'z aytolmadim bolamga goh.
Yillab barmoq bosolmadim qalamga goh,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr.

Yo'lim qarab jayron ko'zi tolib ketgan,
Goh dalada daydi shamol olib ketgan,
Goh andisha ayvonida qolib ketgan –
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr.

Dili borga dildan dardim to'kkanim rost,
So'z boshida bosh egib, tiz cho'kkanim rost,
Gohi jonni avaylagan – qo'rqqanim rost,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr.

O'ksimasin zardob to'la ko'ngilchangiz,
Daryo-daryo ko'z yoshim bor, cho'milsangiz.
Men ham mashhur bo'larmidim, tug'ilsangiz,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr.

Yuragimning tagidasiz, yalpizdan past,
Goh o'ylayman – shundoq qo'lim uzatsam, bas!
Yuzingiz bir ko'rmay sira o'lgin kelmas...
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr.

• • •

Sog'umchisiga sinligi bo'lib surʼiyi boy
Men meroadas us meni por, us too hali por
Oxod ilpox, zo broid shishod qilbi xumol
Tag'umaga do sapidirin, sizdan uzi
Qajib

Tilindsu loli tomli podi olsamsa bog
Bir apini o'sa salovimsiz bolmasa bog
Yillid pastodd posolmasidim daslansha bog
Tag'umaga do sapidirin, sizdan uzi
X

Yo'qim dastib isalon bo'si torib ketasun
Chor qatibas qabdi shuslon olib ketasun
Chor suqisiga shuvonib doliq ketasun –
Tag'umaga do sapidirin, sizdan uzi
A

Dili poras qiblas distibim ro'jekunim losi
So'a posqibas poop ekip, us cho'kkesunim losi
Chor louni avsalrasun – do iddasunim losi
Tag'umaga do sapidirin, sizdan uzi
E

O'ksimsin siddob to'js ko'ningchisiga
Daslo-daslo bo'sa yozibim por, cho'milasudiga
Men jum usaspidim po'jimiqin, eng ifissiga
Tag'umaga do sapidirin, sizdan uzi
I

MASHRAB XIRGOYISI

Donishni qiy nab to'ymagan,
Holi-joniga qo'ymagan,
Nodon bilan oshiq o'ynagan,
Pixini yorgan dunyosan.

O'g' rini siylab ovloqda,
Oshini maqt ab tovoqda,
To'g' rini qiy nab sirtmoqda,
Loylarga qorgan dunyosan.

O'tga bostirib dalani,
Suvga cho'ktirib qal'ani,
Otadan oldin bolani
Jonini olgan dunyosan.

Ulug'in xo'r lar senmasmi –
To'rga o'tqazib nokasni.
Ot o'rniga yo'l barsni
Qo'shiga solgan dunyosan.

Kim ham ishonar nozingga,
Bahoring o'xshar yozingga.
Kuylaring tushmas sozingga –
Qo'shig'i yolg'on dunyosan!..

Oq ro'mol o'r ab otinday,
Tovlanma menga oltinday.
Bola ko'rmagan xotinday –
Allasi yolg'on dunyosan!

DUNYO BU

Bir qarasang, baland taxtda o'ltirar,
Boshing silab, qorningni ham to'ydirar.
Bir qarasang, o'zi non, deb mo'ltirar –
Birda podshoh, birda irmoq dunyo bu.

Bir qarasang, qirg'og'idan toshadi,
To'lqinlari bulutga yondoshadi.
Bir qarasang, zo'rg'a bir tosh oshadi –
Birda irmoq, birda daryo dunyo bu.

Bir qarasang, qulundayin o'ynoqi,
Bo'shatilgan bo'ynidan bo'yinbog'i.
Bir qarasang, tizza to'la titrog'i,
Bir kun bola, bir kun momo dunyo bu.

Bir dardim bor – tor keladi ko'kragim,
Aytsam yig'lab, sel bo'ladi o'zbagim.
Ayting, qachon el bo'ladi o'zbagim?..
Mirtemirni qilgan ado dunyo bu.

Ot ham yomon ko'rар otning zo'rini,
Turta-turta quritadi sho'rini.
To'ra bo'ldik – ko'rmay joylar to'rini,
Ko'pkariday ajab savdo dunyo bu.

Ey, karamli hayot, sendan aylanay,
Ko'ksimdagi bayot, sendan aylanay.
Neki bersang – bergil odam tanlamay,
Bir yelpinib o'tar sabo dunyo bu!

DUNYO

Menga boqib miyig‘ida kulgan dunyo,
Meni tuproq, o‘zni osmon bilgan dunyo.
Seni momom cho‘miltirgan yuvib-tarab,
Seni bobom tetapoya qilgan dunyo!..

Ey, o‘tmishdan o‘tgan kunin so‘ramagan,
O‘zbek borsa, kim qo‘liga qaramagan?
Botirlari qul bo‘lishga yaramagan,
Suluvlari bo‘yniga osilgan dunyo!

Moziy manim borimni yod etib siylar,
Dilin obod, ruhlarin shod etib siylar –
Shoh G‘azzoliy, shoh Tabriziy, shoh Rumiylar
Chorig‘ini yelkasiga ilgan dunyo.

Sen sig‘ingan o‘sha jondin ortiq senga –
Tojmahal ham bir bobomdan tortiq senga.
Kulma menga, iddaolar qilma menga –
To‘qqiz kunda Temur bosib olgan dunyo!

Yuzlaringni yoritgan shu sharq ziyosi,
Dardlaringni aritgan shu sharq ziyosi.
Sinoning etagin o‘pib Ovruposi,
Amriqosi Beruniydan qolgan dunyo.

Mening ko‘shkim ko‘kda – unga yetmaydi qo‘l,
Mening ko‘rkim ko‘ngil, unga eltgay bir yo‘l.
Tirikman men, kel, istasang muridim bo‘l –
Sen islomdan iymon darsin o‘rgan, dunyo!..

PALAXMON

Osmon yerga engashib,
Bulut sog'di kun bo'yi,
Yolg'onchi yor to'yida
Yomg'ir yog'di kun bo'yi.

Yomg'ir emas, bu xalqob
Kelinchak ko'z yoshidir.
Yig'lama, yor, qiz bola
Palaxmonning toshidir.

Qayg'urmagil, qo'y, chorbog'
Aylanamiz, yur, do'stim,
Peshonang shu ekan, bu —
Taqdir, dedi bir do'stim.

Taqdir emas, ayirgan
Yorning qalam qoshidir.
Qolaversa, qiz bola
Palaxmonning toshidir.

Egilmagan yarlarga
Egib yigit boshimni,
Palaxmon-ey, qaylarga
Otding yoqt toshimni!

QIYOMAT

Qiyomatda qorayar quyosh,
Osmon qora dudga to'ladi.
Munofiqlar mushukday yuvosh,
Fohishalar otin bo'ladi.

Qiyomatda qurbaqa bulbul,
Qamishzorlar aylanar tog'ga.
Qo'ng'izchalar bo'ladi duldul,
O'g'rilar qorovul chorbog'ga.

Qiyomatda qullar qorni to'q,
Hojalari bo'lar nonga zor.
Shoir bilan shohning ishi yo'q,
Zindonbonlar qo'shiqlar yozar.

Qiyomatda bo'lmaydi hiyla,
Yomg'ir – sharob, gazagi – ilon.
Hech kim qusmas do'stlari ila
Bir qadah may ichib, bir jom qon.

To'rt faslning bo'lmaydi qishi,
Qiyomatda afsona bo'lmas:
Yusufini quduqqa pishib,
Akalari tortib oladi...
Qiyomatda hamma cho'k tushib,
Muhammadni eslab qoladi!

YANGI YIL

Dalangiz oppoq qor ostida qoldi,
Dehqonbobo, siz ham endi tin oling.
Qo‘lingiz qabardi, belingiz toldi,
Dehqonbobo, siz ham endi tin oling.

Bahordan buyon bir rag‘batingiz yo‘q,
Mehnat qildingiz-u, minnatingiz yo‘q.
Belni silarga ham fursatingiz yo‘q,
Dehqonbobo, siz ham endi tin oling.

Osmonga tutashdi xirmonlaringiz,
Oftobga ilashdi armonlaringiz.
Qaytib kelgunicha karvonlaringiz,
Dehqonbobo, siz ham endi tin oling.

Xoh Yangi yildir, xoh Navro‘z saylidir,
Barcha bayram asli – Siz tufaylidir,
Yorug‘ olam asli siz tufaylidir,
Dehqonbobo, siz ham endi tin oling.

Dalangiz oppoq qor ostida qoldi,
Dehqonbobo, siz ham endi tin oling.
Qo‘lingiz qabardi, belingiz toldi,
Dehqonbobo, siz ham endi tin oling!

QIZG'ALDOQ

Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q,
Kokil yoysang, yerdan bo'lak toshoynang yo'q.
O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,
Peshonangdan o'pay desam, peshonang yo'q.

Sollanasan kelinchakday boshing egib,
Jayron o'tgan so'qmoqlarga yoshing to'kib.
Qizil yuzing qon dilimga turar tegib,
Meningdek, sen g'aribning ham parvonang yo'q.

Qadring bilgan, darding bilgan, ayt, kiming bor?..
Kelib-ketar bahor senga bevafo yor.
Go'zalsanki, senga bari gullar ag'yor,
„Oh“ ursang, bir ohing tinglar ostonang yo'q.

Oldingga men borolmasam, o't gunohim,
Bir yo'qlab qo'y, men dunyodan o'tgan chog'im –
Qabrim uzra hilpirab tur, qizg'aldog'im,
Muhammadan bo'lak do'sti devonang yo'q.

MEN BITTADURMAN

Sanam, sochingdan ham shaydolaring ko‘p,
Husning oshiqlari – adolaring ko‘p.
Nimang ko‘p, ko‘yingda gadolaring ko‘p,
Ammo men bittaman, men bittadurman.

Bek yigit bir sening poyingda xorman,
Garchi diydoringga mushtoq-u zorman.
Men beun sevarman, men jim sevarman,
Qiyomatgacha shul sukutdadurman.

Deydilar: muhabbat bilmas masofa,
Ayriliqni pisand qilmas masofa.
Kelursan o‘zing deb bir kun insofa –
Gohi Toshkent, gohi Urgutdadurman.

Tiling bilmasam ham tushungandayman,
Sen bilan gohi do‘s tutungandayman.
Gohi bu do‘slikdan o‘kingandayman,
Ming bir xayol ichra ming bittadurman.

Suymoq bu – gulkanda kuymoq azali,
Men shahar erkasi, sen tog‘ go‘zali.
Eslab yur yodingga tushgan mahali –
Shaydolaring ko‘p-u, men bittadurman!

ZEBI, ZEBI...

Suzilma, oy, osmonda,
Sendan to'lin yuzlar bor.
Surxon degan tomonda
Oydan oydin qizlar bor.

Ay, yuzingni
Zebi deyman, Zebona,
Ishqingda men devona,
Bolalikda do'st qizlar,
Bo'yga yetgach begona.

Ay, yuzingni
– minsu Chog'im yetmas chog'lasam,
Sen qush bish Oftob erir taftidan.
Ohu bo'min Kechagina xohlasam,
Bir bor ko' Suv ichardim kaftidan.

Ay, yuzingni
Zebi dedim, Zebona,
Ishqingda men devona.
Omad gdirsa Bolalikda do'st qizlar,
Shibyanidas Bo'yga yetgach begona...

Ay, yuzingni
Na u menga elandi,
Na men unga qayrildim.
Do'stim unga uylandi,
Do'stimdan ham ayrildim.

Ay, yuzingni
Zebi dedim, Zebona,
Sevganim sen yagona.
Bolalikda sog' qizlar
Bo'yga yetgach – devona!..

Ay, yuzingni

KECHAGINA

Kechagina qishloqdagi qizlarning bari
 Menga sirli qoshlar qoqib qarashardi.
 Qarashmasa, uylariga tunda kelib,
 Toshlar otib qochar edim, yarashardi.

Sahargacha atrofida aylanishib,
 Dilxun uyga qaytar edim, bilishardi.
 „Kimni kutib turibdi bu yigitcha“ deb,
 Devor osha mo‘ralashib kulishardi.

Bugun esa bo‘y yigitman, bo‘zlaganim –
 Bolaligim olislarda qolib ketdi.
 Bir qishloq qiz orasidan tanlaganim –
 Barmog‘iga tilla uzuk solib ketdi.

Qizlar endi devor oshib mo‘ralashib,
 „Kimni kutib turibsan“, deb so‘rashmaydi.
 Ketolmayman bir hovliga o‘ralashib,
 Toshlar otib qochay desam, yarashmaydi.

Ming bin xavol icara ming bittadurman.
 Suymo qutibdi qiz qolishib, men azali.
 Men azolabosha qiz qolishib, men azali.
 Edabungibiting qiz qolishib, men azali.
 Sheydolaring ko‘g‘u, men bittadurman!
 Sevabsiz qiz qolishib, men azoli.
 Bolalikas zoq, dixtar.
 Bo‘ys zebtagchi – devonchi.

MENING SEVGIM

Mening sevgim, men bilmadim, mening sevgim,
Ko'zing shahломиди сенинг, xumormidi.
Ertakдаги Layli senday dildormidi,
Ay, yuzingni bir ko'rmадим, mening sevgim.

Goh gul bo'lib yashnadi dil, goh so'ldi dil,
Goh yig'latib, gohi o'zi qon bo'ldi dil.
Tomog'imda chirqiragan jon bo'ldi dil,
Ay, yuzingni bir ko'rmадим, mening sevgim.

Sen qush bo'lib uchding-ketding, tutolmadim,
Ohu bo'lib qochding, quvib yetolmadim.
Bir bor ko'rib, bir shirin so'z aytolmadim,
Ay, yuzingni bir ko'rmадим, mening sevgim.

Jannat gulin lablaridan lazzat so'rdim,
Omad gulin yuzlarida chimmat ko'rdim.
Shoir bo'ldim, shohlardan ko'p izzat ko'rdim,
Ay, yuzingni bir ko'rmадим, mening sevgim.

Seni faqat olislardan allaladim,
Erkalasam – xayolimda erkaladim.
Sochlaringni tushlarimda siypaladim,
Ay, yuzingni bir ko'rmадим, mening sevgim.

Soch oqardi yurakдаги shu bir cho'g' deb,
Armondagi, tilakдаги shu bir cho'g' deb.
Yuragim qon yig'lar bo'ldi sevgi yo'q deb,
Ay, yuzingni bir ko'rmадим, mening sevgim.

Ana, ajal ostonamda turar bo'ylab,
Farishtalar chorlar meni o'lan so'yab.
Jannatlarda zerikarman seni o'yab,
Ay, yuzingni bir ko'rmadim, mening sevgim.

Ay, xurixingi piri zo'masdim, mening sevgim
„Kiradibkibl'od" o'sibor
Davolikibl'od
Tomog'iniqibl'od
Begim ega boy yigitman, bo'zlaganim –
Seni dars od'pidiqtin-kelashim
Ota po'kipidapshib
Bir por zo'kipidapshib
Qizlar endi devor oshib mo'valashib,
„Kamomlikto'atishish" nihiyatish
Ketaniby'od'ishish
Sobay o'qibosha qo'sib
Ay, xurixingi piri zo'masdim, mening sevgim

Seni fadst olibsidu silsidiw
Ektisassam – xazolimda silsidiw
Socxistinuq taptissimsiz qaysisidiw
Ay, xurixingi piri zo'masdim, mening sevgim
Socx odsidi, amskedagi shu piri cho'g', dep
Arimondagi, tilskedagi shu piri cho'g', dep
Ymasdim don qiz, ist o'libi sevgi bo'd dep
Ay, xurixingi piri zo'masdim, mening sevgim

KELINCHAK

Kelinchagim, kulib-kulib ketdingizmi,
Yuragimni tilib-tilib ketdingizmi.
Yolg'izlikda nelar bo'lsam bo'ldim-ku men,
Siz murodga yetdingizmi, yetdingizmi?

Qachon mendan tongan qizdan tonar dilim,
Yo'llar qarab qonar dilim, qonar dilim.
Poyingizga intiq bo'lib yonar dilim,
Yot ko'chadan o'tdingizmi, o'tdingizmi?

Ko'nglingizni oldimi shum yangolari,
Aldab yo'lga soldimi yo hiylolari.
Ko'zingizni oldimi yo tillolari —
Sevgimizni zarlariga sotdingizmi?

Mulkingizga ne parilar havas etmas,
Yorim, ayting, sizga yana nima yetmas,
Nechun oydek yuzingizdan qayg'u ketmas,
Hajr azobin siz ham endi totdingizmi?

Kun botmayin eshicingiz yopiladi,
Ko'k zulfiga po'lat zanjir osiladi,
Yig'i bilan xumoringiz bosiladi,
Izlab-izlab shu zindonni topdingizmi?

Hilolim-a, yot go'shaga botdingizmi?

KETAR BO'LDIM

Yor, eshicing ochilmadi men uchun,
Tilingdan bol sochilmadi men uchun,
Uyingdan joy topilmadi men uchun –
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

Keldim desam, joying yo'lak dedilar,
Sevdim desam, tenging bo'lak dedilar,
Sening sevging kimga kerak dedilar,
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

Kuyma, yorim, kuydirmagin, kuyma yor,
Bir yaxshiga bir yomon har joyda bor,
Ikki yaxshi yashnagan joy qayda bor,
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

Derlar, jon sog' bo'lsa, jahon topilgay,
Bir parcha yer, parcha osmon topilgay.
Lekin qayda sendek jonon topilgay,
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

O'N SAKKIZGA KIRGAN QIZ

Baxting bolish boshingda,
Oy uxlaydi qoshingda.
Osmonlarda yurgan qiz –
O'n sakkizga kirgan qiz.

Kiprikmi bu, nayzami,
Yangi chiqqan maysami.
Anbari ufurgan qiz,
O'n sakkizga kirgan qiz.

Bog'ga chiqsa oqshomlar,
Izlarini shabnamlar
Ko'zlariga surgan qiz,
O'n sakkizga kirgan qiz.

Sabo silab sochini –
Qirq juft qaldirg'ochini
Qirq yonga uchirgan qiz,
O'n sakkizga kirgan qiz.

Bahor bilan topishib,
Yomg'ir bilan o'pishib,
Xayol bilan yurgan qiz –
O'n sakkizga kirgan qiz.

Olmani oldin oqagan,
Yuragi tosh qo'qazit,
Dunyo bo'skin osonligi u,
Sevgisini so'ziga.

YUR, MUHABBAT

Oy yuzidan nur yog'di sim-sim,
Yur muhabbat, ketdik bu yerdan.
Shirin tushlar ko'rsin sevgilim,
Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan.

Biz ketsak yer kengayib qolar,
Osmon ham sal enkayib qolar,
Bir qora ko'z jilmayib qolar,
Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan.

Na qildim, ey yuzlari zebo,
Aybim ne deb so'rama aslo.
Bu dunyo shundayin bevafo,
Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan.

Sen dilimda yashnagan chechak,
Biz birmamiz qayda yashasak,
Ne qipti bir qizga yoqmasak,
Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan.

Lekon qayda qayda qayda
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

didaiqot uslid torba

Yomg'it uslid o'qisip

- sifatli qiz qiz qiz qiz

O'n-sakkiz qiz qiz qiz qiz

ALDAMA

Ishongandim do'stimga
Ishonganday o'zimga.
Do'stim meni aldadi,
Xanjar urdi ko'ksimga.

Bog'lardagi gul, yaproq,
Endi menga do'st, o'rtoq.
Gulxan bo'lib charsillab,
Bag'ri-dilim yonar, voh.

Olmani otdim otganga,
Diydasi tosh qotganga.
Dunyo bo'lsin qorong'u
O'z do'stini sotganga.

Ishongandim yorimga,
Suyukli dildorimga.
Yorim meni aldadi,
Quloq solmay zorimga.

Tog'lardagi qizg'aldoq
Endi menga yor, hamroh.
Gulxan bo'lib lovullab,
Bag'ri-dilim yonar, voh.

Olmani otdim otganga,
Yuragi tosh qotganga.
Dunyo bo'lsin qorong'u,
Sevgisini sotganga.

DO'LANA

Ohularning izidan
Qarab qolding jimgina,
Tashna qilgan, zor qilgan,
Aytgin' seni kimgina.

Do'lana, do'lana,
Tog'da o'sgan do'lana,
Do'lana, do'lana,
Yo'lim to'sgan do'lana,
Do'lana, do'lana,
Marjon-marjon do'lana,
O'z yerini topolmay,
Lol-u hayron do'lana.

Sen ichgan suv oq yomg'ir,
Kutganing oy malakdir.
Sen kechgan bu shalola,
Yongan samo falakdir.

Do'lana, do'lana,
Tog'da o'sgan do'lana,
Do'lana, do'lana,
Yo'lim to'sgan do'lana,
Do'lana, do'lana,
Marjon-marjon do'lana,
O'z yerini topolmay,
Lol-u hayron do'lana.

Topmadingmu, topdingmu,
Yetmadingmu, yetdingmu?
Bizni b...
Qizil yuzing sarg'ayib,
Ey justi
Tog'ga chiqib ketdingmu?
Garchi...
Do'lana, do'lana,
Tog'da o'sgan do'lana,
Do'lana, do'lana,
Men ha...
Yo'lim to'sgan do'lana,
Sevdim
Do'lana, do'lana,
Ko'zing
Marjon-marjon do'lana,
Mehri s...
O'z yerini topolmay,
Munglis...
Lol-u hayron do'lana.

Do'st delesandu oxol jopsu niesonu...
Bir bor qosh uqanma...
Soching...
Bir shirim...
Seni...
Tokka pa shubnabas...
Darding olay...
Tog'lar...
Sevdim...
Umir...

Bo'ta ketishbasu go'lli...
Bizni boshqalar dan...
Ey justi halolim, ne g'armonik bor.
Garchi bog'lar kezib yurdadik bargi,
Eelasak, sezirli zosh daminay...
...

* * *

Men na boyvachchaman,
Men na sultonman,
G‘arib bir onaga g‘arib o‘g‘lonman.
Agar sen yer bo‘lsang, men undan xoksor,
Agar sen sher bo‘lsang, men ham arslonman.

Kundayin yillarim o‘tar tizilib,
Bir boshga bir o‘lim turar suzilib,
Bo‘ynim egilguncha ketsin uzilib,
Oriyat yo‘lida ko‘ksi qalqonman.

Boringda soyangga sajda etarlar,
Noningni yeb, qo‘ling tishlab ketarlar.
Yo‘g‘ingda ko‘z qoqmay, tashlab ketarlar,
Do‘sit degandan ozor topgan insonman.

Qumga to‘lib qolgan gavhari ko‘zim,
Gohi tushunmasman o‘zimga o‘zim.
Xudo bor-ku deyman – shu aytar so‘zim,
Tokay bu dunyoda yuragi qonman.

Degaylor yolg‘izga Xudoyimdir yor,
Bu dunyoda beklar u dunyoda xor.
O‘zimdan ham sodda bolalarim bor,
Bo‘ta yetaklagan og‘ir karvonman!..

Do lana, do lana,
Marjon-marjon do lana,
O‘z yevni topolmay,
Loi-u hayron do lana.

EY JUFTI HALOLIM

Bizni birovlardan ne kamimiz bor,
Ey jufti halolim, ne g'amimiz bor.
Garchi bog'lar kezib yurmadik birga,
Eslasak, arzirli xush damimiz bor.

Garchi men bilan hech yo'qdek ishlaring,
Men haqdadir hatto ko'rgan tushlaring.
Sevdim demasang ham sevging izhori –
Ko'zing to'la mehr – jilmayishlaring.

Mehri sadoqati siym-u zar sanam,
Munglig'im, munisim, mushtiparginam.
Parvonam sensan-u boshimda mudom,
Qadringga yetmayin kelganim alam.

Bir bor qosh uymagan qalam qoshligim,
Sochingdagi oqlar – bag'ritoshligim.
Bir shirin so'z aytmay, bitta gul tutmay,
Sen gulni so'l dirdi mening yoshligim.

Darding olay, yorim, aytgil dardingni,
Tog'lar ko'tarolmas sening dardingni.
Sevdim demasam ham sevgim izhori –
Umr o'rtasida bildim qadringni.

Bizni boshqalardan ne kamimiz bor,
Ey jufti halolim, ne g'amimiz bor.
Garchi bog'lar kezib yurmadik birga,
Eslasak, arzirli xush damimiz bor.

LOLAQIZG'ALDOQ

Mendan nima qolar:
Ikki misra she'r,
Ikki sandiq kitob,
Bir uyum tuproq.
Odamlar ortimdan
Nima desa der,
Men seni o'ylayman
O'zimdan ko'proq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq!

Men ketsam, yomondan
Yiroq bo'l, ohu,
Chunki sen chiroyli,
Ko'rkli bir juvon.
Yomon kunlar bir kun
Yaxshi bo'lar-u,
Yomon odam yaxshi
Bo'lmas hech qachon...
Yasha chegarada
Turgandek ogoh,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq.

Uyda yotibman-u,
Sezib turibman,
Ko'kda ketayotir
Qushlar qaytishib.

Xayrlar yog'dirib
Qanotlaridan,
Xasta shoiriga
Vido aytishib.
Bor, mening uchun ham
Ularga qo'l qoq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq.

Ularni men yana
Ko'rmanmi-a,
Ayvondan oadamdek
Kuzatolmadim.
Kuz. To'ylar boshlandi.
Yuragim pora –
Bitta qizimni ham
Uzatolmadim...
Demak, taqdir ekan
To'y ko'rmay o'lmoq,
Lola, lolaginam,
Lolaqizg'aldoq.

Biroq ko'nglim sezar,
Mendan keyin ham
Bir kun bu hovliga
Odam to'ladi.
Hali to'ylar qilib
Charchaysan, erkam,
Mening qizlarim
Eng baxtli bo'ladi!

Kelinlar ko‘ylagi
Ruhimday oppoq —
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Gulim, yaqinroq kel,
Qara, ne savdo,
Bu ajib ishlarni
Dil lavhiga yoz:
Kimga qasr yetmas,
Kimga mol-dunyo,
Menga esa havo
Yetmaydi, xolos.
Tiriklar mudroqda,
O‘liklar uyg‘oq —
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.

Ko‘ksim kuyib borar,
Ko‘krak yonmoqda,
Ayting do‘xtirlarga,
Yorishsa, yorsin!
Jism o‘z ulfati —
Jondan tonmoqda.
Bechora jon endi
Qayerga borsin.
Endi osmon yiroq,
Endi yer yumshoq —
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq.



Buni hayot derlar,
Unutma aslo,
Bir kun ochilasan,
Bir kun so'lasan.
Qalbimda-ku faqat
Sen eding tanho,
Qabrim ustida hamlo, I
O'zing bo'lasan. I
Sen bizning sevgidan
Xotira – bayroq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq.

Ayol qalbing bilan
Suv kech, olov kech,
G'am kelsa, boshingdan
Hushing uchmasin.
Xudodan so'radim:
Mendan keyin hech
Nomard kimsalarga
Ishing tushmasin.
Ularning qo'lida
Hamisha tuzoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq.

Jon so'nggi boshpana
Toparkan ongda,
U yurak ostida
Derdim men bo'lsam.

Ajablanma, agar
Ertaga tongda
Seni o'pib, O'shni
Quchoqlab o'lsam!..
O'tinchim – te pamda
Yig'lama uzoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq!

• • •
Kimga qolsa
Kimga qolsa
Menga esa havo

Yetmalid' qatilg'ay
Suv-peschiq'otolqap
G'as - kelsiz qosqap
Lolaqizg'isipmanu
Xurloban so'rasibar

Mendsu keliq' pect
Ko kask qolsa
Nomzad qamsamiga
Ko kask qolsa
Ayung qolsa
Ufisqiq' op qolsa
Yerishsa, yorsa
Hansine turox
Jista o'z qolsa
Jondon qolsa
Bechota jol qolsa

Qosqapsaq
Endi qolsa
Topshiz qolsa
Endi yashqa
Uzaksa qolsa
Derkun meni qolsa
Lolaqizg'isipmanu

OQ TULPOR

Oq tulporim bor edi,
Beklar unga zor edi.
Og‘aynilar, ot menga
Ham do‘s-t-u ham yor edi.

Yolin o‘psam, tiz cho‘kib,
Kaftimdan suv ichardi.
Chuh, desam yer changitib,
Osmonlarga uchardi.

Uyimizga bir oqshom,
Qarindoshlar to‘lishdi.
To‘y bahona, otimdan
Ayirmoqchi bo‘lishdi.

Otam, yigitsan, o‘g‘lim,
Uylanmasang or, dedi.
Qiz yarashar quchoqqa
Otga nima bor, dedi...

Ot oldidan boshlandi
Chimildiqqa yo‘lakcha.
Kechir, yorim, na qilay,
Otga mehrim bo‘lakcha.

Qoldim ikki o‘t aro,
Go‘shangada dildorim.
Kelin kelgan kechadan
Arazladi tulporim.

Bormi bizdek oshiqlar,
Bahorimda kuz yig'lar.
Qizni o'psam, ot yig'lar,
Otni o'psam, qiz yig'lar.

Bir bor o'psam xotinni,
Uch bor o'pdim otimni...
Jonnı qıynab yashadım,
Kımgı aytay dodımnı.

Yordan kechdim otni deb,
Elga bo'ldim ermaklar.
Qaydan bilsin ot qadrin,
Ot minmagan erkaklar?!

MAJNUNNI UYG'OTSAMMIKIN?

Yangi-yangi tong bo'lib otsammikin?
Kun bo'lib ufq poyiga botsammikin?
Bevafo yorimga jonimni berib,
Oyga boshimni qo'yib yotsammikin?

Men yonarman beqiyos mehrim bilan,
Dil kuyadi dardlashay deb kim bilan.
Yorni hech parvosi yo'q ko'nglim bilan,
Qon yurakni sizga ko'rsatsammikin?

Mulki ishq ko'zlardami vulqon emas,
Ming yashir pinhon emas, pinhon emas.
Sevmas u shoh-u gado inson emas,
Qo'lida rubob, yo'lida tosh qotsammikin?

Bilmadi qadrimni dildor, bilmadi,
Kulmadi, hech menga omad kulmadi.
Meni bu ahli fozil tushunmadi,
Oh urib, Majnunni uyg'otsammikin?..

Yangi-yangi tong bo'lib otsammikin?
Kun bo'lib ufq bag'riga botsammikin?
Ey, Muhammad, yorga jonimni berib,
Oyga boshimni qo'yib yotsammikin?

NAVRO'ZIM

Fasl boshi, yil boshisan, Navro'zim,
Fasllarning sirdoshisan, Navro'zim.
Boychechaklar boshlarini silagan,
To'rt faslning quyoshisan, Navro'zim.

Bulbul ketmas bog'larimga xush kelding,
Men yayragan chog'larimga xush kelding, Navro'zim.

Sening bilan chaman dasht-u dalalar,
Sabolarling yuragimni allalar.
O'choq-o'choq doshqozonlar osilsa,
Sumalaging yalab yayrar bolalar.

Binafshangni asray ko'z qarog'imda,
Yalpizlaring xush bo'yi dimog'imda, Navro'zim.

Suv bo'yida o'sma qo'yar kelinlar,
Surma surib, kiprik bo'yar kelinlar.
Shirin-shirin xayollar og'ushida
Tushlariga ta'bir yo'yar kelinlar.

Navro'z, o'zing quloi sol bir ko'ngliga,
Yil so'ngida beshiklar ber qo'liga, Navro'zim.

Bulbul ketmas bog'larimga xush kelding,
Men yayragan chog'larimga xush kelding, Navro'zim.

ARMON QAHUM

Yog‘ayotgan yomg‘irmi-qormi?

Qor ostida qolgan bahormi?

Sensiz dunyo shunchalar tormi?

Yana bo‘zlar bo‘ldi yuragim.

Shamday yonib, shamday o‘chdimmi?

Sarvinozim, sendan kechdimmi?

Endi senga men ham hech kimmi?

Yana bo‘zlar bo‘ldi yuragim.

Yog‘ayotgan yomg‘irmi-qormi?

Bir jonimga shuncha ozormi?

Bu dunyoda do‘stim ham bormi?

Armonlarga to‘ldi yuragim.

Bu yerlarda netarman endi?

Sahrolarga ketarman endi.

Seni kuylab o‘tarman endi,

Dostonlarga to‘ldi yuragim.

Yog‘ayotgan yomg‘irmi-qormi?

Yomg‘irmi qolgan bahormi?

Masly, sizs boshmasa

Endi ketarman, debi?

Ketib u pish ko‘zim

O‘lyari, offopelli?

O‘sabsasiz, daslybrisasiz

Ullasqo‘nasi, qaylo‘nasi?

MUHABBAT AZOBLARI

Baxtiyor bolaligim
Yog'savot

Yopildi kitoblari,
Qor'osatida

Boshladi navosini
Sesizdus

Boychechaldi
Yasus

Ruh afg'on ruboblari.
Yasus

To'rt faslning qaydasizda
Sipus

Endi to'rt yon termulib,
Sipus

Bulbul ketmadi
Sipus

Topmadim sizdan xabar.
Sipus

Men yaxshingan
Navro'zim.

Qaydasiz, qaylardasiz,
Yasus

Ilk sevgi janoblari?
Yasus

Sening bilan chandayda daalar,
Yasus

Sabolaring yashash
Yog'savot

O'choq-o'choq
Bir joyi

Surnalagi
Bu qizchani

Kecha men bir qizchani
Ammal

Binalshangma
Yig'latib ketgan edim.

Yalpizluring
Yig'ladim endi o'zim,
Bir joyi zim.

O'rtadi azoblari.
Sipus

Qaydasiz, qaylardasiz,
Sipus

Ilk sevgi janoblari?
Desoulsis

Sav bo'yida
Yig'ladim endi o'zim,
Bir joyi zim.

Surma surib,
O'rtadi azoblari.
Sipus

Starin-shirin
Qaydasiz, qaylardasiz,
Sipus

Toshlariga ta
Ilk sevgi janoblari?
Desoulsis

Navro'z, o'zim
Yig'ladim endi o'zim,
Bir joyi zim.

Yil so'ngida
Ilk sevgi janoblari?
Desoulsis

Bulbul ketmadi
Ketdi u bilan ko'kim
Munis Kelding, Navro'zim.

Men yaxrager
Oylari, oftoblari.

Qaydasiz, qaylardasiz,
Sipus

Ilk sevgi janoblari?
Desoulsis

Ko'zegs surʼal to abad

Tugay qayrilmaganing.

Odati qayrilmaganing.

KAMALAK

Ko'kni tutdi kamalak, ko'kni nur quchdi,
Bir sochlari jamalak yodima tushdi.
Kamalakmas ko'kdagi, oltin arg'amchi,
Yo sen aldamchisan yor, yo men aldamchi.

Seni olib ketdi bir tanimaganing,
Qalbim vayron etdi bir qayrilmaganing.
Birga o'sib, bir kunda bo'ldim begona,
Diyonat bo'lsa agar, aytsin dugonang.

Seni mendan ayirdi oltin aroba,
Qanotimni qayirdi, qildi xaroba.
Arobada to'la qiz bizni tushunmas,
Barin qo'yni to'la muz, bizlar uchunmas.

AFROSIYOB

Chopdi tinmay otlari
Ko'hna tarix arobasin.
Ko'mdi tuproq dodlarin
Afrosiyob xarobasin.

O'tdi dunyo, ketdi dunyo,
Yopildi to'rt darvozasi.
Qoldi Xayyom, qoldi Sino,
Mir Alisher ovozasi.

Tojtalabdir, taxttalab,
Chopdi padarkush otasin.
Ko'kka sachrab qoni, chaqnab
Qoldi Ulug'bek shodasi.

Ketdi paymoni to'lib,
Hatto Temurdek bobosi.
Mangu o'chmas yod bo'lib
Qoldi Boburbek nomasi.

Ne jahongir o'chdi shami,
Vayron bo'lib koshonasi.
Shohlar ichra qoldi nomi
Bir Mashrabi devonasi.

Holidin bo'lmay zohir,
Kulgandi o'z zamonasi.
Qoldi Majnun, qoldi Tohir –
Zuhrolarni afsonasi.



Ko'zga surtgil to abad
Tuprog'i xokin nolasin.
Qadni tik tutgil, Muhammad,
Sen ham o'shalar bolasi.

O'zige menqis, egsosan, dep ot eisi
Bahor kelgani, may, imasqaniga, qurumi
Ko'stumiga kelin istonni tor eisi
Qirlanda, qurumi, qurumi, qurumi
Bilawal, qurumi, qurumi, qurumi
Mayli, qurumi, qurumi, qurumi
Nima bo'la bo'la, urush bo'lmashin.

O'slays posriva, xodimchasi xvaloinga
Balki, may, may, may, may
Ko's qolimden ketmase oqdas yezmoniga
Mayli, may, may, may
Kutist kelsi, usrip shesha visqoniga
Mayli, may, may, may
Dili orixrasa osqiron po ibi, sunsmijon
Nima bo'la bo'la, urush bo'lmashin.

Nahot, g'arun' bilib qizil qizil
Kuydinib kai qilsa yortsig' olamni?
Men kimga ishondim aziz bolamni
Nima bo'la bo'la, urush bo'lmashin.

bsc SANAMJON Ko.

Men bir toshqin daryo edim, oqmadim,
Qo‘lim bilan chakkangga gul taqmadim.
Men zamonga boqdim, zamon boqmadi,
Qahri qattiq zamon bo‘ldi, sanamjon.

Otang mendan, gadosan, deb or etar,
Ko‘zlarimga keng jahonni tor etar.
Bilmam, endi kimga seni yor etar,
Vasling dilda armon bo‘ldi, sanamjon.

Qayga bormay, yodimdadir xayoling,
Ko‘z oldimdan ketmas oyday jamoling.
Kunlar kelar, nasib etgay visoling,
Dil orzuga oshyon bo‘ldi, sanamjon.

Qoldi Ulug‘bek shodasi.

Ketdi paymoni to‘lib,
Hatto Temurdek bobosi.
Mangu o‘chmas yod bo‘lib
Qoldi Boburbek nomasi.

Ne jahengir o‘chdi shani,
Vayna bo‘lib koshonasi.
Shehlar ichra qoldi nomi
Bir Mashrabi devonasi.

Hollin bo‘lmay zebir,
Kelegari o‘z zamonasi.
Qoldi Ayqunun, qoldi Tohir –
Zuhrolarni afsonasi.

URUSH BO'LMASIN

Dunyo-dunyo bo'lib yaraldi qachon?
 Hayot ohanglari taraldi qachon?
 Zulmat yorug'likni ko'roldi qachon?..
 Nima bo'lsa bo'lsin, urush bo'lmasin.

Bahor kelganini bilmasam mayli,
 Qirlarda lolalar termasam mayli.
 Mayli, xandon kulib yurmasam mayli,
 Nima bo'lsa bo'lsin, urush bo'lmasin.

Balki umrim uzun, balki qisqadir,
 Mayli, bilmay huzur-halovat nadir.
 Mayli, mehnat qilsam – topmasam qadr,
 Nima bo'lsa bo'lsin, urush bo'lmasin.

Nahot, g'anim bilsa odam odamni,
 Kuydirib kul qilsa yorug' olamni?
 Men kimga ishondim aziz bolamni –
 Nima bo'lsa bo'lsin, urush bo'lmasin.

Zilol asbor to lo oqar atu
 Qis pakitimi diloq qisqur
 Qis qismisi shu ezen-as, besponsur
 Qaydas doib shor-mammasutur
 Kechiqi esidi, lo, yingga men potolimaymu.

Yurt oblo sivona-imtaponiur kechqidiur,
 Ovo kechqidiur, tixx po, li dorur kechqidiur.
 Men eski dep olisidis joudsu kechqidiur —
 Kechiqi qibol, lo, yingga men potolimaymu.

JANGCHI-SHOIR MAKTUBI

Oislarda hilpiragan go'shangami,
Seni kimga uzatishar, ishonganim?
Yor-yor aytar qizlarmi yo shum yangami?
Kechir endi, to'yingga men borolmayman.

Tushlarimda esa oltin soylar bugun,
Farg'onada qolgan so'lim joylar bugun.
Bilmam endi, kimlar yo'lim poylar bugun,
Kechir dildor, to'yingga men borolmayman.

Yurtimni deb, yurtimdan uzoqib ketdim,
Tohir bo'lib daryolarda oqib ketdim.
Bir qirg'oqqa ko'zim to'ymay boqib ketdim,
Kechir endi, to'yingga men borolmayman.

Bunda hali o'chim qolgan dushmanlar bor,
Ko'kragidan o'q yeb, munkib tushganlar bor,
Sevaman deb, sho'r tuproqni quchganlar bor,
Kechir dildor, to'yingga men borolmayman.

Qiz baxtimni qaro qilgan onam dema,
Qismatim shu ekan-da, peshonam dema.
Qayda qoldi shoir-mahmadonam dema,
Kechir endi, to'yingga men borolmayman.

Yurt oldida sinov-imtihonlar kechdim,
Olov kechdim, tizza bo'yi qonlar kechdim.
Men seni deb oislarda jondan kechdim —
Kechir dildor, to'yingga men borolmayman.

QORMI BU...

Olamni qopladi oq qizg'aldoqlar,
 Qaldirg'ochsiz qoldi ko'shki ravoqlar.
 Oydin novdalarda oq harir ro'mol,
 Majnuntollar taqdi tillo baldoqlar.

Qormi bu yo ko'kdan yog'ar atirgul?
 Bulutmi, bulutdan qoqar atirgul?
 Do'stlarim, aslida qish ham gul fasli,
 Zilol anhor to'lib oqar atirgul.

Qor shaklida yog'ar osmondan gullar,
 O'tmoqda fasllar, o'tmoqda yillar.
 Orzular makoni – ozod yurtimda
 Qordek oppoq bo'lsin bu kun ko'ngillar.

Qormi bu yo ko'kdan yog'ar atirgul?
 Bulutmi, bulutdan qoqar atirgul?
 Do'stlarim, aslida qish ham gul fasli,
 Zilol anhor to'lib oqar atirgul.

Ginam yiblot mis'ol diaplardan qoqib,
 Iymanmasin iblop mis'ol o'sis qoqib.
 Qumri iblomil o'sezdi pd'zhan shing'o'l
 Ko'klamoyim.

ERKA KIYIK

Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..
Majnun bo‘lib, sahrolarga yetalasam.
Bu dunyoda briday g‘arib men ham, sen ham,
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

Sening ko‘zing qora, mening ko‘zim qora,
Sening bag‘ring yara, mening bag‘rim yara.
Bu dunyoda sen bechora, men bechora!..
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

Shamol emas, izing quvib yurdi kamon,
Sayyod mening kulbamni ham qildi vayron,
Sening joning, mening jonim – omonat jon,
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

Kel, yig‘laymiz birgalashib yantoqlarga,
Sahrolarda qurimagan buloqlarga,
Ikkalamiz yaralibmiz qiynoqlarga,
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

Umrizning barcha yo‘li, so‘qmog‘i cho‘g‘,
Cho‘g‘dan qo‘rqma, beyuz qo‘ygan qopqondan qo‘rq.
Bu dunyoda senga do‘sst yo‘q, menga do‘sst yo‘q,
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

Soch oqardi, dildosh kutib ko‘zim toldi,
Yuragimdan to‘kilmay ne so‘zim qoldi.
Yo‘l so‘ngida, hech bo‘lmasa o‘limoldi –
Erka kiyik, maylimi bir erkulasam?..

KO'KLAMOYIM

Sochimda oq, men bahordan o'tindim:

Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Qor qo'ynida seni qo'msab o'kindim,

Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,

Kokliga tolpopukdan soch ilsin.

Boychechakka borar yo'llar ochilsin —

Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Fasl boshi ham oxiri o'zingsan,

Majnunlarning yo'ldoshi ham o'zingsan.

Laylilarning sirdoshi ham o'zingsan,

Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Kel-da endi sog'intirmay odamni,

Sen yo'g'ingda bir g'am bosdi yelkamni —

Qorlar kurab ko'mib keldim otamni,

Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ko'king bilan kiyintiray dalamni,

Oyoqyalang suyuntiray bolamni,

O'zing olgin ko'ksimdagi alamni,

Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ginam yo'qdir kuzda ketgan oqqushdan,

Iymanmasin qayta eshik qoqishdan.

Qumri bilan birga chiqdik biz qishdan,

Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Jon ustida asrab yuray ko'kni men,
To'yib-to'yib ko'zga suray ko'kni men.

Yana senga yetamanmi-yo'qmi men,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Dil yayrasin dala-dashting yasanib,
Yalpizlaring suv bo'yiga yastanib.
Ikki misra bayt bitay bir maqtanib,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim!..

Etsa kishmasi? Ko'kunqasni pechi qo'shishim!

Shamil eras, tzingaqib yurdilid
Sayyod mesing bulharishlar o'sha
Sening ioning aksig'ini misra qo'shishim
Etsa kishmasi? Ko'kunqasni pechi qo'shishim!

Kel yig'laymiz, qo'shishim
Sahrolardan qo'shishim
Sen zoq qo'shabsi? Pechi qo'shishim
Qo'shishim? Ko'kunqasni pechi qo'shishim!

Umumizing barchasib? Ko'kunqasni
Cho'g'dan qo'shishim
Bu chayoda sonimiz? Ko'kunqasni
Etsa kishmasi? Ko'kunqasni pechi qo'shishim!

Chinti va'ddi, kishas siyosasi oddiyasini
Yiragindan! Insabiqasini, sejil, qo'shishim
Qurit'i pishu pishas qandak, pi'si qo'shishim
Etsa kishmasi? Ko'kunqasni pechi qo'shishim!

TILLO SANDIQ

Baland jardan tashlandi
Tillo sandiq daryoga.

Yoringman deb yuzlandi
Qorabotir Zuhroga.

Tohir emas, bag'ri xun
Oqib ketdi muhabbat.
Bu dunyoga etagin
Qoqib ketdi muhabbat.

Qaysni quvg'in qilishdi,
Ul oshiqi shaydoni.
Ermak qilib kulishdi,
Qon yig'lagan Layloni.

Majnun emas, sahroda
Sarson bo'ldi muhabbat.
Ikki ko'zi samoda,
Hayron bo'ldi muhabbat.

Afsona bo'ldi, yohu,
Armon bo'ldi muhabbat.
Odamdan bezgan ohu,
Jayron bo'ldi muhabbat.

ARMON

Afg'onistonda halok bo'lgan o'zbek
o'g'lonlari xotirasiga

Hindikushdan taraladi bir nola,
Yuraklarni titratib zor-zor nola.
Qarang, qonga botib yotar bir dala,
Mangu armon bo'lib ketgan o'g'lonlar...

Alpomishday kelbatidan gapirmay,
O'n sakkiz yoshga ham kirib yo kirmay,
O'n gulidan bir guli ham ochilmay,
Umri xazon bo'lib ketgan o'g'lonlar.

Mehnatdan bosh ko'tarmagan dehqon el,
Urushdan hech ko'karmagan dehqon el.
Yo'qlar sizni ko'zdan yoshin to'kib sel,
O'qqa qalqon bo'lib ketgan o'g'lonlar.

Bir daryoga ulanmagan irmoqlar,
Bir qiz sochin silamagan barmoqlar,
Bir tuproqqa to'kilgan qizg'aldoqlar,
Bevaqt qurban bo'lib ketgan o'g'lonlar.

Aslida-ku baringiz bir o'zbeksiz,
Bir yurt o'g'li, bir uzukka ko'zdeksiz,
Bo'g'zimda tosh qotib qolgan so'zdeksiz,
Mardi maydon bo'lib ketgan o'g'lonlar.

Bu dunyoda, balki, bir onaning siz
Tilab olgan yolg‘iz o‘g‘li edingiz.
Qaytmas bo‘lib qaro yerga ketdingiz,
Mulki afg‘on bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar.

Botirmidi, Qodirmidi otingiz,
Qoldi dilga muhrlanib yodingiz.
Jaloliddin, axir, sizning zotingiz,
O‘zbekiston bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar!

Hurlatish o‘sasda qo‘sma qo‘sma
Uch kulu o‘susa nintasqa ob‘siyoz qo‘sma

Yel-u yo‘lari tilasida xot-xot qo‘sma
Mentan qo‘sma qo‘sma

Chiqsya kutilib arnasining o‘s’gina dep
Ko‘nikid ko‘sulan to‘lidan o‘g‘lim dep
Onsue o‘jes po‘msamib o‘g‘lim dep
Zilotin qo‘sma qo‘sma

Ko‘nejim dep qo‘sbligida pax
Qotsi po‘salim pax pax qo‘sbligida pax
Oy
Aer pax xot aq qo‘sbligida pax
Menqa manu aq qo‘sbligida pax

ONAYIZOR

Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham,
Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham,
Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u.

Sig'may qolsam shunday keng bu jahona,
Osmonlarga ruhim bo'lsa ravona,
Jonsiz tanim ustida ham parvona –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u.

Tinar bo'lsa qo'limdagi tor, dunyo,
Uch kun o'tmay unutgay do'st-yor, dunyo.
Yer-u ko'kni titratib zor-zor, dunyo –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u.

Gulday kulib yurmasmidi o'g'lim deb,
Ko'rib ko'nglim to'lmasmidi, o'g'lim deb,
Onang o'lsa bo'lmasmidi o'g'lim, deb –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u.

Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham,
Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham,
Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u.

Astuu -ku baringiz bir o'zdeksiz.
Bir yurt o'g'li, bir uzukka ko'zdeksiz.
Bo'g'zinda tosh qetib qolgan so'zdeksiz,
Mardi maydon bo'lib ketgan o'g'londar.



RAYHON

Rayhon, aylanay rayhoningdan sening,
Oyqaboq go'zalim, joningdan sening.
Kulib ko'klaringdan tushmaysan, qara,
Oy o'tsa uyalar yoningdan sening.

Yetti iqlim aro yetaksi izing,
Tuproqqa to'kilgay tutday xush ising.
Gulga tegsa, gulxan paydo qiladur,
Suvga tegsa, suvni yondirar yuzing.

Hurlardan hur o'zing, xurshidi tobon,
O'zing rayhonsan-u vujuding rayhon.
Bu yorug' dunyoda sendan suluv yo'q,
Mandan bechora yo'q, mendan notavon.

Sen Arshi a'loda jannatiy chashma,
Men yerda yonaman, tomchingga tashna.
Ko'klarga qo'lini tutgan qulingman,
Zilolim, uvolim tutgay, adashma.

Rayhon, aylanay rayhoningdan sening,
Oy o'tsa, uyalar yoningdan sening.
Kulib ko'klaringdan tushmaysan sen-da,
Menga-da joy yo'q osmoningda sening.

Bir qiz yig'lar buloq boshida,
Ma'yus majnuntoilar qoshida.
Ko'ngil zori ko'zin yoshida:
Bevalo ko'p ekan dunyoda.

MEHR QOLUR

O'tar qancha yillar to'zoni,

Yulduzlar – ko'z yoshi samoni.

O'tar inson yaxshi-yomoni,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Qorachug'da porlagan o'sha,

Iqboliga chorlagan o'sha,

Dunyoni tor aylagan o'sha –

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Anor, sening yuzlaring, suluv,

Xumor, sening ko'zlarin, suluv.

Yodda qolmas so'zlarin, suluv,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Oqib ketdi suvlarda Tohir,

Zuhro yig'lab qoldi qon bag'ir.

Kelganda ham qiyomat oxir,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Nima deysan, ey g'ayir inson?

G'iybatlaring qildi meni qon.

Sen ham bir kun o'tursan, inon,

Mehr qolur, muhabbat qolur.



BIR QIZ YIG'LAR

Bir qiz yig'lar buloq boshida,

Ma'yus majnuntollar qoshida.

Ko'ngil ohi ko'zin yoshida:

Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Nigohida oftoblari bor,

Nolishlarin javoblari bor,

So'ngan sevgi azoblari bor,

Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Tovoniga tushgan kokillar,

Qizginaga qo'shib yig'lar.

Bir so'z dilga sanchadi tig'lar –

Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Dildan ko'chib ketsa xayollar,

Yomonga yo'q ekan jazolar,

Yolg'on dunyo ekan dunyolar,

Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Ermak ekan endi Laylolar,

Majnun g'arib kezgan sahrolar.

Ertak ekan Tohir-Zuhrolar,

Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Bir qiz yig'lar buloq boshida,

Ma'yus majnuntollar qoshida.

Ko'ngil zori ko'zin yoshida:

Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Qo'y, yig'lama, mening jon singlim,
Men ham sendek bag'ri qon, singlim.
Menga ham yo'q mehribon, singlim,
Bevafo ko'p ekan dunyoda,
Muhabbat yo'q ekan dunyoda!



YOLG'ONCHI YOR

Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon?
Yolg'on yig'lab, kuyganlaring tugar qachon?
Qachon menga bir iltifot aylagaysan?
Qachon tugar sitamlaring karvon-karvon?
Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon?

Majnun bo'ldim sahrolarda, bir soya yo'q,
Menga oftob – qaroqchidan himoya yo'q.
O'ngimda cho'g', so'limda cho'g', ko'nglimda cho'g',
Jonim sayyod qo'lidagi jayron-jayron,
Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon?

Uzun tunlar bekorga men to'lg'onmasman,
Parizodim, seni sevdim, hech tonmasman.
Ming bir kecha ertaging ayt – ishonmasman,
Ishonmay ham ko'zimda yosh marjon-marjon,
Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon?

Jannat ishvasiga uchib kim chopmagan?
Taqdir mening peshonamga qil yopmagan.
Noshud qulman, chaman kezib, gul topmagan,
O'z holimga endi o'zim hayron-hayron,
Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon?

Tushunmadim muhabbatning shevasiga,
Ko'ngil berdim senday qizning nimasiga?
Nega mindim omonat ishq kemasiga?
O'z umrimni o'zim qildim vayron-vayron,
Yolg'onchi yor, yolg'onlaring tugar qachon?

Qo'NING SEVGIM

Men ham sendek bo'si oon, singim.
 Mening sevgim, mening g'ussam, go'glo'Y
 Sendan qanday ko'ngil uzsam.
 Ishon, so'zim yolg'on emas,
 Ko'ngil uzmoq oson emas.

 Mening Majnun holimga boq –
 Ko'zimning yoshlari irmoq.
 Qiyin emas ko'ngil bermoq,
 Ko'ngil uzmoq oson emas.

 Kecha biz shod edik, hay-hay,
 Go'yo bizdan bo'lak yo'qday.
 Xayr deyman senga qanday –
 Ko'ngil uzmoq oson emas.

 Kecha baxtli edik, jonim,
 Qumlardan uy qurdik, jonim.
 Qanday uyni buzdik, jonim,
 Ko'ngil uzmoq oson emas.

 Degaylar, bu bir kam dunyo,
 Omonat goh, mubham dunyo.
 Uzilsa jon ne g'am, ammo
 Ko'ngil uzmoq oson emas!..

YAXSHI

Xurshid DAVRONga

Ey do'stlarim, dunyoda

Ortda qolgan iz yaxshi,

Bulbuli yo'q bahordan

Qumri to'la kuz yaxshi.

Minnat to'la halvodan

Ayvondagi muz yaxshi,

O'pich ko'rgan paridan

Sepkil toshgan yuz yaxshi,

Ichmasang ham, qimiz zo'r,

Quchmasang ham qiz, yaxshi.

Ey do'stlarim, dunyoda

Ortda qolgan yod yaxshi,

To'qligingda yo'qlagan

Qarindoshdan yot yaxshi,

O'nta nomard do'stingdan

Bitta cho'loq ot yaxshi.

Olisdagi oltindan

Quchoqdagi gard yaxshi,

Vafosi yo'q xotindan

Davosi yo'q dard yaxshi,

G'alamis bergen g'aznadan

Burda arpa non yaxshi,

Qirqta chala mulladan

Bitta musulmon yaxshi.

TURNALAR

Gul faslida qalbga gulmas, ignalar to'ldi,
Qiynalganim ko'rib, gullar qiynalar bo'ldi.
Turna emas, ko'klardagi oltin arg'amchi,
Yo sen aldamchisan, yorim, yo men aldamchi.

Yo'qsa nechun mening fasli bahorimda g'am,
Biz-ku odam, diydorlashur dashtda o'tlar ham.
Turna emas, ko'klardagi oltin arg'amchi,
Yo sen aldamchisan, yorim, yo men aldamchi.

Malhamingman, doim hamdam bo'laman, derding,
Turna bo'lib har bahorda kelaman, derding.
Ayt-chi, unda nechun meni sevaman, derding,
Turna bo'lib har bahorda kelaman, derding.

Turna emas, ko'klardagi oltin arg'amchi,
Yo sen aldamchisan, yorim, yo men aldamchi.

Degaylar, budaklari ijsberi
O'mopidaxiylardan iborat
Uzisa joishiniga duxshib
Ko'shishib qiziqishda ushbuini,
G'sisimis pergu g'sususini
Bulqis qizs noni kaxshi
Qizita chits mullashni
Bitta surʼiyon uksidi

ILTIVO

Alda meni,
Aldagani o'zim yaxshi.
Nima desang, men bariga ishonaman.
Qizg'aldoqday qizlar kulib tursa, boqmay,
Suyib, seni saylagan sho'r peshonaman.

O, yuzlari to'lin oydan chiroyligim,
Gohida gul, gohida tosh yurakligim.
Bu dunyoda hammadan ham kerakligim,
Alda meni.

Yerda yursam, ko'rolmasin do'stim, sotsin,
Yulduzga bosh qo'yib yotsam, toshlar otsin.
Oftob chiqsa, ko'kragimga cho'g'lar botsin,
Alda meni.

Alda meni,
Aldagani o'zim yaxshi.
Suydim-kuydim, ko'rmay qoldi ko'zim yaxshi,
Senga tanho, senga topgan so'zim yaxshi,
Alda meni.

Momo hayot, mujgonlaring nimaga nam?
Menga nima, bo'lsa agar dunyo bir kam.
Kel, azizim, kel, yolg'izim, kel, xotirjam
Alda meni.

MAVLUDA QIZ

Bo‘ynima tortiq etib arg‘amchi, yor,
Ketdingizmi, alvido, aldamchi yor.
Bizni zor tashlab ketib, orzungizga
Yetdingizmi, alvido, aldamchi yor!

Siz-ku yor bo‘lmadingiz, Mavluda qiz,
Bizga ham bordir biror hovlida qiz.

Yulduzimsiz dedingiz, bir yoniboq –
O‘chdingizmi, alvido, aldamchi yor.

Tengi yo‘q Muhammadingiz bahridan
Kechdingizmi, alvido, aldamchi yor!

Siz-ku yor bo‘lmadingiz, Mavluda qiz,
Bizga ham bordir biror hovlida qiz.

Ul sanamning uyi saroy bo‘lmasa ham,
Paxsa tom, paxsa devor hovlida qiz.

Yo‘l qarab, kunlar sanar biz kabi, bir
Bizga mushtoq, bizga zor, hovlida qiz.

Siz-ku yor bo‘lmadingiz, Mavluda qiz,
Bizga ham bordir biror hovlida qiz.

DILBARIMSIZ

Dunyolardan tilab olgan dilbarimsiz,
Ko'ksimda gul, ko'klarimda hulkarimsiz.
Ko'zimdan yosh oqqanlari-oqqan meni,
Qiyo boqmay yoqqaningiz-yoqqan meni.

Yuzi jannat bog'laridan nishona qiz,
Nima desam, so'zlarimga ishonasiz?
Bir qayriling, sizdan dunyo so'rarmidim,
Yoqtirmasam, bog'ingizga bo'ylarmidim.
Qochmang mendan misli o'tdan qochgan kabi,
Sizni suyib, sizga yomon so'zlarmidim.

Ayriliqning qora kun-u tuni qursin,
Chehrangizada tong tabassum qilib tursin.
Erkalasam, erkalabman xolos, sizni,
Yomon o'yda qo'l uzatsam, qo'lim sinsin.

Erkalasam, erkalashni bilarman-da,
Nari borsa, sochingizni silarman-da.
Hali sizga qo'lim tegmay qochmang, yorim,
Bir erkalik qilsam endi qilarman-da.

Yuzi jannat bog'laridan nishona qiz,
Nima desam, so'zlarimga ishonasiz?

TEGIRMONNING CHARXPALAGI

Tegirmonning charxpalagi aylanarmi-yo?

Qizginaning ko'ngli menga boylanarmi-yo?

Boylansa zorim bor, boylanmasa zo'rim yo'q,

Qanot yozib, yonginamga shaylanarmi-yo?

Samarqandning soyidagi uzuk bo'laymi?

Momiq bilagingga bilakuzuk bo'laymi?

Na desang ham roziman, yor, men senga maftun,

Shamol bo'lib yonginangga yelaymi?

Ko'rishib ham ko'rmay turib ketganingda-yo

Har nigohing menga otgan toshlaringmi-yo?

Kiprik to'la munchoq-munchoq yoshlaringmi-yo?

Ko'zlariningda yaltiragan surmalarmi-yo?

Tegirmonning charxpalagi aylanarmi-yo?

Qizginaning ko'ngli menga boylanarmi-yo?

Boylansa zorim bor, boylanmasa zo'rim yo'q,

Qanot yozib, yonginamga shaylanarmi-yo?



KO'Z TEGMASIN

Ikki chashma xumoringiz —
Ko'zingizga ko'z tegmasin.
Guldan go'zal ruxsoringiz —
Yuzingizga ko'z tegmasin.

Qayda yurmang, yodimdasiz,
Maqsad-u murodimdasiz.
Kutaman, deb menga bergen
So'zingizga ko'z tegmasin.

Garchi bugun begonaman,
Ishqingizda devonaman.
Menga nima bo'lsa, mayli,
O'zingizga ko'z tegmasin.

Sergak bo'ling, sohibjamol,
Hurkak bo'ling ohumisol.
Asta kuling, asta yuring,
Izingizga ko'z tegmasin.

Xaxona qiziq qiziq qiziq qiziq
Ko'z qiziq qiziq qiziq qiziq
Uqimyus qiziq qiziq qiziq qiziq

Jud, jid, jid, jid, jid, jid, jid, jid
Ko'z qiziq qiziq qiziq qiziq
Tengus qiziq qiziq qiziq qiziq

YULDUZ

Hur qizman-u, hur jonimga posbon yo‘q,
Yulduzman-u, qadrim bilgan osmon yo‘q.
Tengimni topolmay toqman taxtimda,
Malikaman – menga loyiq sulton yo‘q.

Men misli moviy chamanda bulbul,
Lab ochsam, hamisha poyim to‘la gul.
Rozimni tushungay bilmaslar ham til,
Dilimni tushungan bitta inson yo‘q.

Yoqutman, yo‘limga zorlar ne zotlar,
Oltin ayvoniga chorlar ne zotlar.
Nigohim tushmayin yuragim dodlar,
O‘jar qizman, mendek o‘jar o‘g‘lon yo‘q.

Bag‘ringga botdimi yolg‘iz bu boshim,
Qo‘y, meni ovutma, artma ko‘z yoshim.
O, hayot, azizim, o bag‘ritoshim,
Men asov daryoman, menga to‘g‘on yo‘q.

Xazondek sochilgan poyimga zarlar,
Dunyoning ziynati bo‘ynimda porlar.
Ko‘ksimda jaranglab yotar xanjarlar,
Uyimda har na bor, bir Marg‘ilon yo‘q.

Hur qizman-u, hur jonimga posbon yo‘q,
Yulduzman-u, qadrim bilgan osmon yo‘q.
Tengimni topolmay toqman taxtimda,
Malikaman – menga loyiq sulton yo‘q.

SHUKUR DEYSAN SEN QACHON?

Tamagirni tortqilab,
Nafsi qo'ymas, deydilar.
Nokas o'zi to'ysa ham,
Ko'zi to'ymas, deydilar.

Boq bir yorug' olamga –
Kimlar zo'rg'a kun ko'rар.
Odamlar bor, bog'dagi
Bulbuldan ham pul so'rар.

Yolg'on dunyo – bu dunyo,
Arzon dunyo – bu dunyo.
Ne-ne hokim, beklardan
Qolgan dunyo – bu dunyo.

Kiprikdan ham qisqadir
Mol-u dunyo yo'llari.
Ibrat bo'lsin, Iskandar
Ochiq ketgan qo'llari!..

Uzat deysan, ber deysan,
Hech qo'ymading, odamzod.
Tuya to'ydi, fil to'ydi,
Sen to'ymading, odamzod.

Shukur qilar hattoki,
Qumursqa-parrandalar.
Shukur deysan sen qachon,
Xom sut emgan bandalar?..

Bu uch kunlik dunyoda

Savlatingga kerilma.

Qasr qurma, bog' qoldir,

Davlatingga kerilma.

Malikamushiboyin qo'shiqida yo'q.

O'z elingni qaqshatsang,

Xor bo'lasan o'zing ham.

Bir kun shu el mehriga

Zor bo'lasan o'zing ham!..

Dilmanzo'r suq qurashlari yo'q.

Yodgorchay qo'shiqida yo'g'ishlar,

Olin zoysiyardibetimub muda

Nigchiunskishiha qolishim-sifilar,

O'jaz oxunbuq etibarhub usg'lo'On yo'q.

Bog' ringaibspaiq nashishliq Yoshim,

Qo'y meniislli oy soqib u'lo Myoshim.

O, hayot, ushmissalo, kiel' o'li'ishid,

Men asov, kusli' op usqizibirdi O'On yo'q.

Xazon, usveziborishda qayroq shaxsiklar,

Durbosimbar yonibat qopidosiblar.

Ko'ksim daibig od jahibiyot senejlar,

Uyindokunsho ligibant'otmeng'On yo'q.

Hur qizma qilothad jalip u'sebon yo'q,

Yelduzan tsibasasiq arzimunu qon yo'q.

Tengim qosibospida usvezib mullidinda,

Batafuslebsduningmoxsa mo'xi yo'q.

* * *

Muhabbat, sen chiroyli,
 Muhabbat, sen go'zalsan.
 Tag'in bir zum turaylik,
 Gapirmayman uyalsang.
 So'ng ketarmiz. Sezdimki,
 Men orzuga yetmadim.
 Seni shunday sevdimki
 Qo'lingdan ham tutmadim.
 Qo'ling... sening qo'llaring
 Muloyimdir, ehtimol.
 Ayri tushdi yo'llarim,
 Sevar yorim, yaxshi qol.
 Muhabbat, unut meni,
 Va men ham... unutmeyman.
 Tushlaringda kut meni,
 Tushlaringga kirgayman.
 Muhabbat, sen chiroyli,
 Muhabbat, sen go'zalsan.
 Kel, ko'rishib turaylik,
 Salomlashmay uyalsang.

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
 Keng dalada gullar bosgan o'monim bor,
 Qizgaldoqlar bosh egib qon yig'lab turgan
 Bu makonda mening ham sur jehonim bor.

RUH TO'TISI

Bosh bir kun tosh yostiqqa yetar,
Ruh to'tisi tanni tark etar.
Deydilar, yosh tanlamas ajal,
Xudo bilar, kim oldin ketar...

Oftob yelib tolsa ko'k uzra,
Unga osmon sandig'i hujra.
Haqdan hukm, bandadan ijro,
Xudo bilar, kim oldin ketar?!

Pok dilingni kemirdi hasad,
Qadamingda topding aziyat,
Do'stim, menga qilma vasiyat,
Xudo bilar, kim oldin ketar.

Aso tutmis qancha qaddi dol,
Men bir kuchga to'lgan navnihol.
Otam meni ko'mar, ehtimol –
Xudo bilar, kim oldin ketar.

Ko'zim ko'kda, sizda xayolim,
Jujuqlarim – mening kamolim!
G'animatmiz, jufti halolim,
Xudo bilar, kim oldin ketar!..

OTAMQAMHA

Yusuf otaga

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Qoq dalada o'tlar bosgan o'rmonim bor.
Qizg'aldoqday boshim egik bu makonda,
Yoshin yashab o'tmagan otajonim bor.

Ota desam, bag'ri-dilim yonaverar,
Kunim yonar, oy-u yilim yonaverar,
Mozoriga qo'ygan gulim yonaverar,
Tutunlarga to'lib ketgan osmonim bor.

Esaversin jannatlardan kelgan nasim,
Momo yerim, o'zingsan eng muqaddasim,
Bag'ringda jim tinglab bu tun jon nafasim,
Ruhimni allalab yotgan jahonim bor.

Odam bo'lib bir odamni tushunmaslar,
Ko'zingda yosh ko'rib ham goh o'kinmaslar,
Bosgan izim poylab yurgan ey nokaslar,
Qabrdan qo'l cho'zib turgan qalqonim bor.

Men otamdan qolgan erkin sado-sasman,
Qonimga yot navolarga qayrilmasman,
O'lgunimcha endi undan ayrilmasman –
O'z otamdek bo'lib qolgan iymonim bor.

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Keng dalada gullar bosgan o'rmonim bor,
Qizg'aldoqlar bosh egib qon yig'lab turgan
Bu makonda mening ham nur jahonim bor.

AHMAD ZOIR QO'SHIG'I

Ko'ngil degan bo'stonim,
Gullari so'lib ketdi.
Ne do'sti mehribonim,
Dushmanim bo'lib ketdi.

Qaydasiz, onajonim,
Yuragim to'lib ketdi.
Kun bormu mendaylarga,
So'ragim kelib ketdi.

Bulbul edi zabonim,
Tikonlar tilib ketdi.
Men boshlagan qo'shiqni
Qarg'alar ilib ketdi.

Qaydasiz, onajonim,
Yuragim to'lib ketdi.
Kun bormu mendaylarga,
So'ragim kelib ketdi.

Yovlar otgan yoylarga
Kuragim to'lib ketdi.
Qaydasiz, onajonim,
Yuragim to'lib ketdi.

Kun bormu mendaylarga,
So'ragim kelib ketdi.

QIZIL OLMA

Baland shoxda qizil olma

Pishgan ekan.

Uzib olib qarasam, qurt

Tushgan ekan.

Men olmani irg‘itvorsam,

U dod soldi:

Tashlab ketar ekan meni

Nega oldi?!

Qizil olma, qizil olma,

Men yengildim.

Dunyoyi dun deganlarin

Endi bildim...

Yuragim-ey, seni ne o‘y

O‘rtamoqda?

Sevgiga yo‘l bo‘lsin bizga

Bu chorborg‘da.

Baland shoxda qizil olma

Pishgan ekan...

Bizning boshga shunday savdo

Tushgan ekan.

MENGA BERING

Olam yaralgandan beri,
Odam yaralgandan beri,
Ajdodlarim imdodini
Menga bering, menga bering.

O‘g‘lim, deb ishongan elim,
Kindik qonim tomgan elim,
Tuyg‘ularim ozodini
Menga bering, menga bering.

Ne baxt, besh yuz yildan beri,
Boqiydir bir bobom she’ri.
Behzod chizgan suratini
Menga bering, menga bering.

Qarang, Abu Rayhon kelur,
Xasta ko‘ngli vayron kelur,
Sinoning tibbiyotini
Menga bering, menga bering.

Temurnimas, Chingiznimas,
Osmon to‘la yulduznimas,
Ulug‘bekning niyatini
Menga bering, menga bering.

Hinduga musofir o‘sha,
Hirotdagি Bobur o‘sha,
G‘urbatdagи Furqatini
Menga bering, menga bering.

BINAFSHA

Jilg‘alar bo‘yiga cho‘kkan guloyim,
Bulbulning patidan barging muloyim.
Seni etagidan to‘kkan Xudoyim,
Jannat jilvasisan, xoksor binafsha.

Ilk jamol ko‘rsatgan oq qorlar aro
Gul yo‘q sendan bo‘lak gulzorlar aro,
Dunyoda bor moviy minorlar aro
Sen ham bitta mitti minor, binafsha.

Yo‘qlaysan har bahor ungan joyingni,
Fidoyisidursan sen fidoyingni.
Ko‘zimga suraymi zulfi yoyingni,
Sendan ulug‘ yana kim bor, binafsha.

Qora sovuqlarga chidab, mung‘ayib,
Yo‘llar yoqasida mo‘min jilmayib,
Birga o‘sqandaymiz, birga ulg‘ayib,
Muhammadga dildosh dildor, binafsha.

TOPILMAYDI

Topilmaydi, topilmaydi, topilmaydi,
Bu davrada menga hamdam topilmaydi.
Yomg'irdek yog'adi ko'zdan mehr yoshi,
Qon yurakka dard-u malham topilmaydi.

Qo'y, ey bulbul, bu ko'nglim qolgan sendan ham,
Suyib yor, kuyganlaring yolg'on mendan ham.
Topilgay sendagi bor armon mendan ham,
Mendagi ishq, mendagi g'am topilmaydi.

Kelar qaytib bir kuni ketgan odamlar,
Xoli bo'lgay bu boshdin ham malomatlar.
Topilgay do'st, topilgay yor, parizodlar,
Qani otam, qani onam, topilmaydi.

Xusumat, sen nechun buncha boqasan,
Nechun otash jismimni yana yoqasan.
Qo'lingga tosh olib yo'limga boqasan,
Ketarman bir kuni, sadom topilmaydi.

Temernimas, Chingiznimas,
Osmon to'la yulduznimas,
Lilag'bekning niyatini
Menqa bering, menga bering.

Hinduga musofir o'sha,
Hirotdagi Bolur o'sha,
G'urbatdagi Furqatini
Menga bering, menga bering.



BAHOR KELGUNCHA

Har bahor chokidan so'kilar yillar,
Tiriklik yo'lida to'kilar dillar.
Umr karvoniga qo'shilar yo'llar,
Kim bor, kim yo'q yana bahor kelguncha.

Hayot qaramaydi ko'ngil mayliga,
Boqmagil, jonginam, ko'ngil mayliga.
Chiqaylik, g'animat, gullar sayliga,
Kim bor, kim yo'q yana bahor kelguncha.

Dunyoni unutgan insonlar o'tar,
Ko'zlarni kuydirgan jononlar o'tar.
Bugun orzu, erta armonlar o'tar,
Kim bor, kim yo'q yana bahor kelguncha.

AH KAPALAKLAR BA

Tug‘ilgandan men sho‘rlikning bag‘rim qon,
 Bir jismimda talashadi ikki jon.
 Jon talashsam, tepamda charx urgan ul –
 Kapalaklar odamlardan mehribon.

Oqqushlarim oq yomg‘irda ucharlar,
 Saharlardan shudring-sharob icharlar.
 Tanlamayin qabrlarni qucharlar,
 Kapalaklar odamlardan mehribon.

Gulga qo‘nsa, qanotlari botmaydi,
 Ojizlarim birovga tosh otmaydi.
 Bir kun yashar, bir-birlarin sotmaydi,
 Kapalaklar odamlardan mehribon.

Bir qarasang, na kulbasi, uyi yo‘q,
 Na tovushi, na qo‘shig‘i, kuyi yo‘q.
 Kapalakning kambag‘ali, biyi yo‘q,
 Kapalaklar odamlardan mehribon.

Kapalakning Ka’basidir hur dala,
 Dalasida mehr to‘la, nur to‘la.
 Baxtsiz bo‘lsa, bari baxtsiz bir yo‘la,
 Kapalaklar odamlardan mehribon.

Oydin oqshom yodga tushding, o malak,
 Seni o‘ylab bo‘ldi yana qon yurak.
 Sevaman, deb aldamaydi kapalak!..
 Kapalaklar odamlardan mehribon.

Muhammadga ishongan ey mo'minlar,
O'lsam so'zim eslab, o'yga cho'minglar:
Kapalakning qanotiga ko'minglar,
Kapalaklar odamlardan mehribon.

Yapon minnligi, Xalqaro qo'shi
Eltasibasi tursi, ko'nikchi
Senqa toshlar o'tdi, qay o'sha
O'sumru emshi, qo'shi qizisiga choga
Aksini disir oqishiga ko'biqd
Zor, dastilom, sanas mukhabasli
Ke'yseni pidi jumro, bog'libi, go'y
Mas isloq davlatni, menugligi, zo'd
Jap'et minnligi, o'li zibosib
Bu dumilib, uslakchi qizig'li
Engish, nilib, uslakchi qizig'li
Mabitasedit ismoni, qanumikobu
Jaysimchi, qur, qur
p'oq minnligi, ko'd
Bildip o'da qur, vellug'li
Eltasibasi pidi ko'nikchi
Senqa tsardi, senqa tsardan
Kel, tug'ishgan, og'algan botlayman,
Jayron, neza, neza zing to'la yostida.

DO'STMAN, DEGANLAR

Kecha meni maqtab yurganlar,
Bir umrga do'stman, deganlar,
Yoshlik qilib qoqingan chog'im,
Panalarda g'iybat qilganlar –
Bilib qo'ying, yengilganim yo'q,
Ertamdan ham ko'ngillarim to'q.

G'anim emas, do'st aldagan chog'
Alam qilar odamga ko'proq.
Dilbandlarim tursa mo'ltilab,
Ko'kdan bir kuch yog'iladi goh –
Men haq deyman, yengilganim yo'q,
Ertamdan ham ko'ngillarim to'q.

Ezilmagin bunchalar, dilim,
O'tar qaro kechalar, dilim.
Xudoyimning rahmati kengdir,
Oldindadir eng yorug'kunim.
Bilib qo'ying, yengilganim yo'q,
Ertamdan ham ko'ngillarim to'q!

Dalasida mehr to'la, tur to'la.
Baxsiz bo'lsa, bari baxtsiz bir yo'la.
Kapalaklar odamlardan mehribon.

Oydin ogshom yodga tushding, o malak.
Seni o'ylab bo'ldi yana qon yurak.
Sevaman, deb aidihamaydi kapalak!
Kapalaklar odamlardan mehribon.



JAYRON

Qon yig‘latdi qaysi bag‘ritosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?
Oyog‘ingga qo‘yib yotay bosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?..

Yurak qoning to‘kilgan so‘qmoq
Bag‘ri alvon lolaqizg‘aldoq.
Senga toshlar otdi qay gumroh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?..

Zor yig‘lading buncha ham hayhot,
Menda ham bor sendagi sayyod...
Ey beozor, ey mo‘min jonzot,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?..

Bu dunyoning nokaslari bor,
Ezgulikni ko‘rolmaydilar.
Meni ham qon qildilar ular,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?..

Labim bilan yarang silayman,
Senga dardi shifo tilayman,
Kel, tug‘ishgan og‘ang bo‘lay man,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?..

Bi r sonand zo, x tutsaq
Seveq, pog, i zo, jumseini
Kumds kumding zo, neq, por
Qo, zasering, o, aussini.

QO'YAVERING...

Shamol sabab, ehtimol,
Tunda eshik g'ichirlar.
Boshlanadi qishloqda,
Sekin pichir-pichirlar.
Sizga nima,
Siz uxlang!
Hech ishingiz bo'lmasin.
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin.

Oshiqlarim oshiqdek,
Mayli, ko'ngil xushlashsin,
Ikki oshiq istasa,
Shamol bilan mushtlashsin.
O'ksimasin qiz qalbi,
Yigit ra'yi o'lmasin –
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin.

G'iybat qilmang yigitni,
Uyaltirmang qizni ham.
Shunday o'tli muhabbat
Siylar bo'lsin sizni ham.
Bir sovuq so'z tufayli
Sevgi bog'i so'lmasin,
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin.

Ilk sevgidan iymanib,
So'ng pushaymon yonsa kim,
Sepli qizga suykalib,
Epli qizdan tonsa kim,
Nasib etmay yor vasli,
Endi hajri qiynasin.
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin.

Ikki yorti bosh uzra
Porlasin ishq quyoshi,
Qizga hayo, yigitning
G'urur bo'lsin yo'ldoshi.
Diydoriga bir-birin
Termulishib to'ymasin.
Kimda kimning ko'ngli bor,
Hayo Qo'yavering, o'ynasin.

Kim qonosha bo'lgan bo'sha
O'qimgilma, diley, hisobga, misoddan
Yurganturo, usloq obistik, qiz qol
Osmon nobla qap neglal ot vayrasit mil'o
Qarina fesmisoq uchqaq delki imza ibra

MUHABBATIM

Muhabbatim, qaydasan, qalb ardog‘im,
Jayronko‘zim, qirlarda qolgan ohum.
Qo‘lim tegmay to‘kilgan qizg‘aldog‘im –
Endi seni izlab qaydan toparman?..

Kelar bo‘lsang, yo‘lingga gul to‘shardim,
Sen Layliga, men Majnunga o‘xshardim.
Bu dunyoda hijron yo‘q, deb yashardim –
Endi seni izlab qaydan toparman?

Oyni ko‘rmay yulduzga termuldim men,
Sevgim, sen qon yig‘laganda kuldim men.
Hech qiyosing yo‘q ekan-ku, bildim men –
Endi seni izlab qaydan toparman?

Ko‘nglimni kuydirib, bir yo‘li hijron
Uzra ketib borar mensiz bir karvon.
Umrimning yarmini to‘ldirgan armon –
Endi seni izlab qaydan toparman?..

Muhabbatim, qaydasan, qalb ardog‘im,
Jayronko‘zim, qirlarda qolgan ohum.
Qo‘lim tegmay to‘kilgan qizg‘aldog‘im,
Endi seni izlab qaydan toparman?

Bir sovuq so‘z tutayli
Sevgi bog‘i so‘lnasini,
Kunda kisning ko‘ngli bor,
Qo‘yavering, o ynasini.

JON OTA

Kunlar oyga, oylar yilga aylanar,
Aylanadi charxi beshafqat.
Guli xas, g'unchasi gulga aylanar,
Jon ota, sen
Qarima faqat.

Kim qonibdi ne'matiga bu hayot?
O'tgan kunni qanday etib bo'lar rad.
Ammo bo'lsa bu dunyoning gashtiga
Qon, ota, sen
Qarima faqat.

Yoshing falon derlar – kimda g'anim yo'q,
G'animsiz ham xato yozuv, xato xat.
Hayqir, ota: Bungacha kirganim yo'q,
Ton, ota, sen
Qarima faqat.

Kim qonmasa ne'matiga bu hayot,
O'tgan kunni etsa bo'lar rad.
Yurgancha yur, turgancha turgin,
Osmon ota, sen
Qarima faqat.

BESHINCHI O'G'IL

Yetmish yulduz yog‘ilib,
Yarim oycha to‘lolmas,
Yetti yanga yig‘ilib,
Bitta ona bo‘lolmas,
Ona tirik eshikka
G‘urbat yaqin yo‘lolmas,
Mening esa bag‘rim qon,
Vayronaman, Onajon.

Garchi biz yosh, g‘o‘r edik,
Siz bor – biz ham zo‘r edik,
Bir mayizni besh o‘g‘il
Teng bo‘lishib yer edik.
Goh talashsak, haq so‘zni
Onam aytsin, der edik,
Tushmi endi u zamon,
Hayronaman, Onajon.

Tirik yursa validang
Tog‘ga kuching yetarkan,
Onang o‘lsa, boshingdan
Oftob o‘tib ketarkan.
Jindekkina alam ham
Tog‘dek botib ketarkan,
Ko‘ksim to‘la ming armon,
To‘lg‘onaman, Onajon.

Onasiz uy – oysiz tun
 Ekan, endi o'ylasam,
 Qalbni o'rtar dardlarim,
 Qay birini so'ylasam?
 Sizsiz ko'cham befayz,
 Halovat yo'q uyda ham,
 Farishtasi tark etgan
 Ostonaman, Onajon.

O'zing uchun o'l yetim –
 O'rda ham men, qirda ham.
 Ko'ylagimda tugma yo'q,
 Tugma bo'lsa, kir yoqam.

To'rt yangamga qo'shilib
 Turtkilaydi to'rt og'am,
 O'z uyimda jonajon,
 Begonaman, Onajon.

Ko'ngil o'zin tutingan
 Bir mehribon qo'msaydi,
 Dunyoda bir odamga
 Siring aytib bo'lsaydi,
 Onasizni do'sti ham,
 Dushmani ham aldaydi,
 Ayting axir, men kimga
 Ishonaman, Onajon?..

Endi fagut qotur tur-ni, inqash yo'q sиза.
 Endi men kam o'ishlab qoldum bir akademik.
 Erke kelin bo'ling endi Asakangizga.
 Baramstol bog'da simi ko'nikka taydagan.

Yo'qligingiz qadamda
Turar shunday bilinib,
Non yopmaysiz tonglari
Menga kulcha ilinib,
Sarg'ayarman sarg'aygan
Rasmingizga termulib,
Ziyo istab, zor qaqshar
Parvonaman, Onajon.

Uy to'rida tolbeshik –
Akam yotgan, men yotgan,
Sherdek-sherdek kelbatli
Besh o'g'ilga asqotgan,
Qaytib kirib bo'lsaydi,
Bo'lardim jon deb qaytgan!
Men bu joyni hammadan
Qizg'onaman, Onajon.

Yashayapman sharparek
Sezilmay, goh sezilib.
Gohi ko'kka intilib,
Gohi yerga egilib,
Sog'inganda she'r yozib,
Yuraklarim ezilib –
El ichra bir shoiri
Devonaman, Onajon.

Ko'ksim to'la ming armon,
To'lg'onaman, Onajon.

BURAMATOL BOG'DA

Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam,
Bir boqdim-u, bilmam, nedir uzildi jondan.
Burgut edim, bir kechada tushdim osmondan,
Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.

Qiqirlashib qizlar o'tar, sizdan darak yo'q,
Qirq qiz ichra biz sog'ingan qizdan darak yo'q.
Qaylardasiz, bir ko'rmoqdan o'zga tilak yo'q,
Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.

Ahvolimni yo'ying, ana, nega yo'ysangiz,
Ayb mendami, bir qayrilib ko'nglim olsangiz.
Asakangiz ketmas-ku bir kulib qo'ysangiz,
Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.

Bu qanday bog', tollari ham o'sar buralib,
Butoq-butoq kokillarga qoldim o'ralib.
Bag'rim yonib yashar bo'ldim, bag'rim to'g'ralib,
Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.

Kuya-kuya ketar bo'ldim, sizni topolmay,
Kulbamda bir yelkangizga ro'mol yopolmay.
Kumushdayin xolingizdan bitta o'polmay,
Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.

Endi faqat eslash bor-u, indash yo'q sizga,
Endi men ham o'xshab qoldim bir akangizga.
Erka kelin bo'ling endi Asakangizga,
Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.

SEVGI SADOSI

Gulim, mehr ko'zda degani yolg'on,
Mening dilimda hech o'chmas yolqinsiz.
Qancha ko'rishmasak, shuncha qadrdon,
Qancha olis bo'lsak, shuncha yaqinsiz.

Devona oshiqman, men bir devona,
Ayting, sizdan bo'lak kimim bor yana?..
Siz yo'q chog'imdag'i dunyom begona,
Siz yo'q bog'imdag'i gullar yoqimsiz.

Siz achchiq qismatim, siz iztirobim,
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim,
Siz mening ko'klardan topgan oftobim,
Yerlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz.

Yodimda kechagi sho'xliklaringiz,
Ko'ksimni kuydirgan kipriklaringiz,
Siz o'sha – orzusi oydan oydin qiz,
Siz o'sha – kulgusi qo'ng'irog'imsiz.

Siz o'sha – ko'zimning kiftida yurgan,
Siz o'sha – ko'nglimga ko'ngli in qurgan,
To'kilay deb tilim uchida turgan –
She'rim siz, bir umr bitmas ohimsiz...



ALLOH GO'ZAL

Orazi gul, husni hilol,
Alloh go'zal, Allah go'zal.

Mutloq kamol, mutloq jamol,
Alloh go'zal, Allah go'zal!

Arsh arkida sulton o'zi,
Beayb-u benuqson o'zi.

Poyiga cho'k, ul Zuljalol,
Alloh go'zal, Allah go'zal!

Diydori bir shirin umid,
Azal vujud, abad vujud.

Kimga ayon, kimga xayol,
Alloh go'zal, Allah go'zal!

Nahri zilol, bag'ri bahor,
Gul chehra yor, nur chehra yor.

Oromijon, oshuftahol,
Alloh go'zal, Allah go'zal!

Tuproqqa jon etmish ato –
Momo Havo, Odam Ato.

Loydan odam yasar kulol,
Alloh go'zal, Allah go'zal!

Shoir tilak-ta'bim o'shal,
Ruhim o'shal, Rabbim o'shal,
Allahu akbar, ey Bilol,
Alloh go'zal, Allah go'zal!

DILOROM

Bir qayrilib, bir boqib, ayladingiz bizni rom,
Endi bizda yo‘q orom, endi bizda yo‘q orom.
Yelka to‘la sumbulmi, sumbul-sumbul sochmi yo,
Kiprik o‘pgan qoshmi u, bir juft qaldirg‘ochmi yo.
Aylaylikmi jon nisor, beraylikmi boshmi yo,
Dilorom, Dilorom, siz malika, biz g‘ulom.

Yurak to‘la dardingiz yarmi bo‘lsin bizniki,
Ko‘ngil berdik, biz endi to o‘lguncha sizniki.
Davlatim yo‘q qo‘limda mungli torimdan bo‘lak,
Qo‘shiqlarim, kuylarim, ko‘ngil zorimdan bo‘lak.
Suymasa ham, suysa ham sizdek yorimdan bo‘lak,
Dilorom, Dilorom, siz malika, biz g‘ulom.

Bir qayrilib, bir boqib, ayladingiz bizni rom,
Endi bizda yo‘q orom, endi bizda yo‘q orom.
Qo‘l tegmagan qizg‘aldoq, lab tegmagan bodasiz,
Suvdan tiniq, guldan sof, oftobdan ozodasiz.
Siz muhabbat qasrida tanho shahrizodasiz,
Dilorom, Dilorom, siz malika, biz g‘ulom.

KUMUSHBIBI NOLASI

Sizga bir armon bo‘lay, zolim begin,
Jayron bo‘lay, quvlab yetib oling, begin.
Marg‘ilonning yo‘liga boshim qo‘yib,
Jon beray, Zaynab bilan qoling, begin.

Qani ul qayrilmaqosh Kumush, demang,
Bag‘ri gul, bag‘ri otash Kumush, demang,
Ko‘zlarining nega yosh, Kumush, demang,
Bir ko‘ray, Zaynab bilan qoling, begin.

Sig‘madim kundoshning bu tosh shahriga,
Dosh berolmam bu qaroshlar zahriga.
Yordan ayrildim, qaro yer bag‘riga
Jo bo‘lay, Zaynab bilan qoling, begin.

Sen nechun to‘lg‘onasan kuygan ko‘ngil,
Otabekni jonidan suygan ko‘ngil,
Yashnagaymi bir quchoqda ikki gul?
Men so‘lay, Zaynab bilan qoling, begin.

Yorginam ruxsoriga jonom fido,
Bu jahonda boriga jonom fido.
Xayr, ey shirinzabonim, alvido!
Men o‘lay, Zaynab bilan qoling, begin.

Sizga bir armon bo‘lay, zolim begin,
Jayron bo‘lay, quvlab yetib oling, begin.
Marg‘ilonning yo‘liga boshim qo‘yib,
Jon beray, Zaynab bilan qoling, begin.

SHIRIN QO'SHIG'I

Jonim deya jonim olgan sayyodim,

Tinglamadi na dod-u, na faryodim.

Ko'ngil bersam, ko'nglimni qon yig'latdi,

Unga kerak ekan umri barbodim.

Qalbim to'la mehr edi, cho'g' edi,

Orzuyim ko'p, nigohlarim sho'x edi.

Undan bo'lak mening kimsam yo'q edi,

Sag'ir qushga achinmadi sayyodim.

Qiz bolani yig'latishdan osonroq

Yana ne bor bu olamda, ey hamroh.

Sevgi bo'ldi jonimda bir qizil dog',

Endi qanday kechar mening hayotim!

Odil dunyo, odilling bilmadim,

Yor yonida bir kun kokil o'rmadim.

Shirin edim, shirin umr ko'rmadim,

Bevafo yor ekan' mening Farhodim.



YOSHLIK

Bahorlari o'tdi tush kabi,
Xazonlari qoldi yoshlikning.
O'zi uchib ketdi qush kabi,
Armonlari qoldi yoshlikning.

Neki o'tsa armon ekan-da,
Yoshlik ham bir mehmon ekan-da.

Qayerlarga ketdi ulg'ayib,
Ostonalar qoldi mung'ayib.
Endi oydin oqshomlar o'tsam,
Ko'chalar ham ko'nglimdek g'arib.

Ko'ngilda ne, pinhon ekan-da,
Yoshlik ham bir mehmon ekan-da.

Kunlarim kuy, yillarim g'azal,
Dilim yonar, tillarim asal.
Sizga qanday, bilmadim-u, men,
Yoshligimning har oni go'zal.

Bir fasllik bo'ston ekan-da,
Yoshlik ham bir mehmon ekan-da.

O'ZBEKNING AYOLLARI

Uxlamaydi tunlari,
Oy nurlari taralgan.
O'zbekning ayollari
Farzand uchun yaralgan.

Yildan uzun kunlari,
Kim ko'nglini so'rolgan.
O'zbekning ayollari
Mehnat uchun yaralgan.

Qirq yil qirg'in bo'lsa hamida
O'z ahdida turolgan.
O'zbekning ayollari
Toqat uchun yaralgan.

O'zbekning ayollari,
O'zbekning xotinlari,
Suvdan halol,
Guldan pok,
Qo'llari – oltinlari,
Qay tomonga bursa yuz,
Yo'llari – oltinlari
Izzat uchun yaralgan!



SUVPARI

Seni hech kim sevolmaydi meningdek,
Vaslingga zor bu oshiqlar, ehtimol,
Poyingga tiz cho'kib yig'lar, ehtimol,
Lekin sodiq bo'lolmaydi meningdek.

Aldanma yor, aldamchilar makriga,
Malak bo'lma bevafo ishq shahriga.
Ular seni bir bossa bas bag'riga,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Yo'ling kesib o'tsam – o'zim xijolat,
Uzoqdan bir seni ko'rsam kifoyat.
Bir nigohing o'zi menga inoyat,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Joningga jon bo'lmayman-u, sevaman,
Yoningga bir kelmayman-u, sevaman,
Ismingni ham bilmayman-u, sevaman,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Sen ko'kdagi harir ko'ylak, hur-pari,
Ko'k ko'ldagi tinib qolgan suvpari.
Muhammadning ko'nglidagi dilbari,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

QIZLAR QO'SHIG'I

Qiz yo'q uyda sarin sabo esmaydi,
Qiz yo'q uyda jambil-rayhon o'smaydi.
O'g'illarning ota bilan ishi yo'q,
Qiz otasin har qadamda eslaydi.
Ko'zlariga surgay yurgan izingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz...

Qiz yo'q uyda tonglar erta otmaydi,
Tomda oftob, ayvonda oy yotmaydi.
O'g'il qanday do'st bo'ladi, bilmadim,
Qiz do'st bo'lsa – siringizni sotmaydi.
Og'ir kunda javdiratmas ko'zingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz...

Umr daryo, tolega kim kafildir,
Qizning borar joyi bo'lak sohildir.
Qiz dardiga yetmaganlar g'ofildir,
Qiz bor uyda yorug' bo'lar yuzingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz...

Dunyo ko'rki – shu ko'zları shahlolar,
Qizlar bilan chamanzordir sahrolar.
Bir qayrilib Qaysni Majnun aylagan,
Tohirlarni Tohir qilgan – Zuhrolar.
Qiz tufayli butdir rizq-u ro'zingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz...

Ayting, kimming paymonasi to‘Imagan,
Qiz bor – ota yot bag‘irda o‘lman.
O‘g‘lim yo‘q, deb o‘kinganlar – johillar,
Hatto Muhammadning o‘g‘li bo‘lman!..
Bilib ayting aytganda har so‘zingiz,
Qay o‘g‘ildan kamdir, ayting, qizingiz?!

OZODA

Ozodani sevaman men, Ozodani,
Suluvlarning sarvari – xonzodani.
Yo‘latmasman yoniga shabbodani,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Ko‘rganman-u, ko‘rganim ertasidan,
Yuragim qoq bo‘lingan o‘rtasidan.
Har kuni bir o‘taman ko‘chasidan,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

O‘taman-da. O‘tmasam bo‘lmaydi hech,
O‘tmay desam, ko‘ngil qurg‘ur to‘lmaydi hech.
Ko‘zim toyib ketaverar – qo‘ymaydi hech,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Bir eslasam zirqillaydi bandi-bandim,
Kechagina bir qizchani o‘ynatgandim!
Kuchugiga oqqand berib o‘rgatgandim,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Tushunmaslar kuladi: esiz-esiz,
Kimdir ermak qiladi: esiz-esiz,
Xotinim ham biladi, nima deysiz?
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Yigit qirqda qirchillab g‘arq pishadi,
Erta-indin sochimga oq tushadi,
Chin oshiqlar qirq yilda topishadi!
Ozodani sevaman men, Ozodani.



Qayria

Aksar muktoh

Binalsha

Tashummayev

Bahodehgan

Kamush

Kundoshli

Turkman qiz

Ko'nglimdag'i yor

Qizinch

Qiz

Mashuk xirzoz

Kipnye bu

Dzhig

Gel'mon

Qizmat

Kings yil

O'seq'abiq

Men, bishshurman

Zhi, Zhi

Kachagan

Mening, sevgan

Rasimchak

Rasim, bo'sher

Qiz - qizligi - kizligi - qiz

Qiz, qizligi

Qiz

Qiz, qiz

Qiz, qiz

Qiz, qiz, qiz, qiz, qiz, qiz

Sevgan edim, hamon u suyukli yor,
Bilagida barmog'imning izi bor.
Ozodaning bir o'g'il, bir qizi bor...
Men baribir sevaman Ozodani.

Sevgisi nomi u surʼati bor
 Ozodani qoz qoʼsining tuz ber
 Bishqis qurʼaniga qoʼsining tuz ber
 Salur qoz qoʼsining tuz ber
 Oʼsosha qoz qoʼsining tuz ber
 Yozma qoz qoʼsining tuz ber
 Men qoz qoʼsining tuz ber
 Ozodani sevaman men, Ozodani.

MUNDARIJA

Oʼzbekiston	3
Iqror	7
Vatanim	9
Oʼzingdan qoʼymasin, xalqim	12
Yoshlar madhiyasi	14
Xalq boʼl, elim	15
Ey aziz Vatan	16
Izhori dil	17
Ona Turkistonim	20
Vatanni seving	21
Vatan, yagonasan	22
Posbonlarmiz	23
Oʼzbekiston	24
Vataning boʼlsin	25
Alpomishlar yurti	26
Inshoolloh	27
Oʼzi asrasin	28
Tilak	30
Oʼzbek degan nom	31
Oʼzbekmomo	32
Oʼzbek bolasi	33
Andijonim	35
„Quyoshga qarab oqqan suv“	36
Bir kuni	37
Oʼzbek	38
Posbonlar	39
Samarqand	40
Amir Temur	41
Marsiya	42
„Tushimga kiradi...“	44

Tavallo	45
Qayda bor	46
Askar maktubi	48
Binafsha	49
Tushunmaysan	50
Bobodehqonim	52
Kumush	54
Kundoshli uy	55
Turkman qiz	56
Ko'nglimdag'i yor	57
O'tinch	58
Uzr	59
Mashrab xirgoyisi	61
Dunyo bu	62
Dunyo	63
Palaxmon	64
Qiyomat	65
Yangi yil	66
Qizg'aldoq	67
Men bittadurman	68
Zebi, Zebi	69
Kechagina	70
Mening sevgim	71
Kelinchak	73
Ketar bo'ldim	74
O'n sakkizga kirgan qiz	75
Yur, muhabbat	76
Aldama	77
Do'lana	78
„Men na boyvochchaman“	80
Ey jufti halolim	81
Lolaqizg'aldoq	82
Oq tulpor	87
Majnunni uyg'otsammikin?	89
Navro'zim	90
Armon	91
Muhabbat azoblari	92
Kamalak	93
Afrosiyob	94

Sanamjon	96
Urush bo'lmasin	97
Jangchi-shoir maktubi.....	98
Qormi bu	99
Erka kiyik.....	100
Ko'klamoyim	101
Tillo sandiq	103
Armon	104
Onayizor.....	106
Rayhon.....	107
Mehr qolur	108
Bir qiz yig'lar	109
Yolg'onchi yor	111
Mening sevgim	112
Yaxshi	113
Turnalar.....	114
Iltijo.....	115
Mavluda qiz	116
Dilbarimsiz	117
Tegirmonning charxpalagi.....	118
Ko'z tegmasin.....	119
Yulduz.....	120
Shukur deysan sen qachon?	121
Muhabbat, sen chiroyli	123
Ruh to'tisi	124
Ota.....	125
Ahmad Zoir qo'shig'i	126
Qizil olma.....	127
Menga bering	128
Binafsha.....	129
Topilmaydi	130
Bahor kelguncha	131
Kapalaklar	132
Do'stman, deganlar	134
Jayron	135
Qo'yavering	136
Muhabbatim	138
Jon ota.....	139
Beshinch o'g'il	140

Buramatol bog'da	143
Sevgi sadosi	144
Alloh go'zal	145
Dilorom	146
Kumushbibi nolasi	147
Shirin qo'shig'i	148
Yoshlik	149
O'zbekning ayollari	150
Suvpari	151
Qizlar qo'shig'i	152
Ozoda	154

2012-yilning 10-iyul kuni

«Zivo usul»
itoylari
Tasdiq etilgan - 2012

Abdumalikov Yangiyo'ldan	W.M. Saitov
Gulyorov Ibragimov	Bekiriy Muratov
Qurban Habsayev	Muridov Mirzam
Surbaba Sunnatinbekova	Cholikhanov

Ushbu surʼati ilgʼisiga AA № 0000.20.07.2012
2012-yilning 10-iyul kuni 09:00-saqtida shaxʼib. Qo'sos pichʼini 84x109,5
ibrikda qoldi. U-s-Achʼasym» sumutishniqchi qo'sos uchun shaxʼib possedi.
Sizning boʼsha rasmi 84,8. 11-savubot-jisod rasmi 3,5.
Aʼzab 10000 (5-ayʼos 2000). Sertifikatsiya 10-12.

Boshmukta ishlashi 0337

«Zivo usul»
W.M. Saitov Chetqobon Jumavasi
Tasdiq etilgan. Fikratos turmasi, 23-iyul, 2012

«Cudo Junes» MCJU
judo rasmiyatlari qo'sob qilib
Tasdiq etilgan. 100
16-iyul 2012-yil
www.zivo.usul.uz

SHE'RIYAT DURDONALARI

MUHAMMAD YUSUF

ALYORIM QOLUR

She'riy to 'plam

«Ziyo nashr»

nashriyoti

Toshkent – 2019

Muharrir

Abdurahmon Jo'rarev

Badiiy muharrir

Bahodir Ibrohimov

Musahhih

Oybek Haydarov

Sahifalovchi

Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019

11.10.2019-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108¹/₃₂

Offset qog'ozi. «Uz-Academy» garniturasida offset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 8,40. Nashriyot-hisob tabog'i 3,5.

Adadi 10000 (2-zavod 5000). Shartnoma № 19–19.

Buyurtma raqami 932.

«Ziyo nashr»

Mas'uliyati Cheklangan Jamiyati

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ

kitob fabrikasida chop etildi.

Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01/05

www.credoprint.uz

17391

84(55)6

Yer - 91

SHE'RIYAT DURDONALARI

MUHAMMAD YUSUF

Alyorim qolur...

• KUYGA SOLINGAN SHE'RLAR •

*Men ketarman, qolmagay tilla taxtu ko'shklarim,
Menga bu dunyoda chin keltirdi baxt qo'shiqlarim,
O'zbeginm uyida yangrar hamma vaqt qo'shiqlarim,
Yod bo'lib aytganlarim, elimda alyorim qolur ...*



ZIYO NASHR



t.me/zionashr



fb.com/zio.nashr



zionashr@mail.ru



ISBN 978-9943-5705-9-7



9 789943 570597